

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI “IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT”
TA‘LIM YO‘NALISHI
“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“O‘ZBEK ETNOMADANIYATI VA JAHON SIVILIZATSIYASI”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: 5810400 “Ijtimoiy-madaniy
faoliyat” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi
Beknazarova Xushnida Shermaxmatovna____
ILMIY RAHBAR:
t.f.n.dotsent. Saidahmedov I. _____
KAFEDRA MUDIRI:
Katta o‘qituvchi Shodiev X.X _____

*Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedaraning 20__ yil “__” _____dagi ____sonli
yig‘ilishida muhokamadan o‘tib, himoyaga tavsiya etilgan*

Toshkent – 2014

M U N D A R I J A

Kirish

I. BOB. ETNOMADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Etnik madaniyatni o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar
- 1.2. Madaniyatning etnomilliy mohiyati va jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni

II. BOB. O'ZBEK ETNOMADANIYATI VA JAHON SIVLIZATSIYASINING AMALIY AHAMIYATLARI

- 2.1. Etnik madaniyatning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari
- 2.2. Milliy istiqlol va o'zbek etnomadaniyatini rivojlantirish masalalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqil O'zbekiston dadil va shaxdam qadamlar bilan jahon hamjamiyati a'zosi bo'lmish mamlakatlar orasida o'zining munosib o'rnini topib, ildamlab bormoqda. U o'zligini namoyon etishga istiqloq va hurriyat sharafi ila erishdi. Mustaqil rivojlanish ijtimoiy voqelikka aylangan hozirgi kunda o'zbek xalqi etnik madaniyatining taraqqiyot yo'llarini aniqlab olish, ilmiy va amaliy kuchlarni uyg'unlashtirovchi dasturlar ishlab chiqish talab etiladi. Madaniyatni rivojlantirish va prognozlash muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bu soxada aniq bir metodologiya xali ishlab chiqilmaganini, madaniy jarayonlarni o'lchash, rivojlanishning samarali yo'llarini topish murakkab vazifa ekanligini yakdillik bilan qayd etadilar. Etnik madaniyat xalqning, millatning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlar, tashqi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish, o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy voqelik, ayniqsa inson va xalq hayotining barcha tomonlariga taalluqli madaniyat ko'p omillilik, komplekslik, sinkretiklik, universallik, turg'unlik va o'zgaruvchanlik xususiyatlariga ega.

Madaniyatning ushbu xususiyatlarini hisobga olmasdan uning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotdagi o'rnini ham, ichki tuzilishi va fo'unksiyalariga oid belgilarini ham to'g'ri anglash mumkin emas

Birinchidan, mustaqil jamiyatning barcha jabhalarida chuqur islohotlarni amalga oshirishni tabiiy ravishda kun tartibiga qo'ydi. Yoshlar bu jarayonning mohiyatini to'g'ri anglamog'i, ijtimoiy faol bo'lmog'i uchun madaniyat tarixini o'rganmog'i va bilmog'i lozim.

Ikkinchidan, mustaqillik sharofati bilan yoshlarimiz xorijda tahsil olmoqdalar, o'zga xalqlar madaniyati, udumi, an'analari bilan tanishmoqda. Bunday sharoitda o'z madaniy-ma'rifiy merosini yaxshi bilmaslik kechirilmas hol.

Ular jahonni hayratga solgan ajdodlar merosini bilmog'i va unga munosib voris bo'lmog'i kerak.

Uchinchidan, milliy g'oya, milliy mafkurani shakllantirish, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, yoshlarni millat va istiqlol manfaatlariga zid g'oyalar, qarashlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish vazifasi milliy-ozodlik g'oyalarini, buyuk mutafakkirlarimizning merosi va asarlarini bilishni talab etadi.

To'rtinchidan, yosh avlodlarda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish va tegishli tavsiyalarni berish zamon talabi sanaladi. Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi tanlangan mavzuning dolzarbligini, uning jiddiy talablar bilan uyg'un kelishini alohida qayd etish joiz.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XIX asrning so'nggi choragi va XX asr boshlarida N.I.Veselovskiy, A.A.Divayev, N.I.Mellitskiy, V.V.Bartold, B.L.Vyatkin, Akrompolvon Asqarov, T.Mirg'iyosov olib borgan tarixiy-arxeologik qazishmalar o'lkamiz xalqlariga, shu jumladan, o'zbek xalqiga xos turmush tarzi, xo'jalik yuritishi, savdo-sotiq ishlari, amaliy san'ati va og'zaki ijodining etnik xususiyatlarini anglashga yordam berdi. Keyinchalik, tarixiy-arxeologik izlanishlarni A.Yu.Yakubovskiy, G.P.Chabrov, G.V. Grigoryev, A.P.Okladnikov, C.P.Tolstov, M.Ye.Masson, V.A. Shishkin, Ya.R.G'ulomov, B.D.Jukov, G.A. Pugachenkova, E.V. Rtveladze, V.V.Lunin kabi olimlar davom ettirdilar.¹ Ushbu tadqiqotlarda O'rta Osiyo sivilizatsiyasining jahon sivilizatsiyalarida tutgan o'rni, uning Xitoy, Hindiston, Eron davlatlari va Yevropa qit'asi bilan integratsion aloqalari tarixiy-arxeologik manbalar bilan ochib berildi. O'zbek xalqi etnik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga U.H.Qoraboyev xalq donishmandligi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush-madaniyati kabi ko'plab soxalarni kiritadi. Etnik madaniyatni maxsus

¹ Jabborov.I. "O'zbek xalq etnogirafiyasi. -T.: "O'qituvchi", 1994. -19 b

tadqiq etgan S.A.Arutyunov esa uni insonning ma'naviy va moddiy madaniyatlar sistemasiga ajratib qarashni taklif etadi.

K.Sh.Shoniyozov yozadi: «Etnografiya fanida elatni (millatni ham) belgilovchi bir qancha alomatlar mavjud: xudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyliigi, ong tizimi, etnosning uyushqoqligi, ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, o'z etnik nomiga (etnomiga) ega bo'lishi, din umumiyliigi va bir qancha boshqa alomatlar.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbek etnomadaniyatini keng miqyosda o'rganish va uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va rolining muhimlik darajasini tahlil etish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

- Etnomadaniyat va jahon sivilizatsiyasiga oid manbalarni to'plash va ularni o'rganish:

- Etnomadaniyat va jahon sivilizatsiyasi rivojida uchrayotgan muammosini hal qilishni aniqlash:

- Madaniyat muassasalari faoliyati jarayonida etnomadaniyatni shakllantirishga jalp qilish:

Tadqiqotning ob'yekti - O'zbek etnomadaniyati va jahon sivilizatsiyasini o'rganishda yurtimizda mavjud madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyati qo'l keldi.

Tadqiqotning predmeti - Ma'naviy barkamol inson tarbiyasida sharqona an'ana va qadriyatlar, etnik madaniyat va sharq madaniyatining rivojlanish bosqichlari ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ushbu jarayonning mazmuni, shakli, vosita va metodlari o'rganib chiqildi va qadriyatlarga yondashuv ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, shu asosda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo'yicha monitoring olib borish. Mazkur masala yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish va samaradorlik darajasini belgilash.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, "Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi”, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan Davlat dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, asarlari, “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida ko'tarilgan muammolar va ularning yechimlari haqidagi qarashlarni shakllantirishning an'anaviy va zamonaviy metodlariga yaxlit yondashuv, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, falsafiy manbalar.

Tadqiqot metodlari:

1. Mavzuga doir falsafiy, siyosiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;
2. Qiyosiy-pedagogik tahlil;
3. Anketa, suhbat,
4. Ko'rsatmalarni o'rganish;
5. Monitoring olib borish.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy ahamiyati. Respublikamizda madaniyat muassasalarining ishlarini tashkil qilish borasida ishlab chiqilgan dasturlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident Islom Karimov farmonlari, nutqlari, kitoblari, madaniyat muassasalari ishlarini olib borish masalasiga oid bo'lgan hujjatlar tadqiqotning nazariy asosi va dasturiy amali hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan Respublika oliy ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonida mafkuraviy tarbiya samaradorligini oshirishda, milliy g'oyani talabalar ongiga singdirishning yangi texnologiyalarini joriy qilishda, “Etnomadaniyat”, “Etnik madaniyat”, “Anana va marosimlar” kurslarini o'qitishda, ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilarining malakasini oshirishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar dasturlarini tuzishda, shuningdek, “Ma'naviyat va ma'rifat” markazlari, axborot texnologiyalari markazlari, guruh murabbiylari faoliyati mazmunini yoshlarda pedagogik texnologiyalari orqali mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning shakli, vosita va metodlari bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining strukturaviy tuzilishi

Kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**I. BOB. ETNOMADANIYAT TUSHUNCHASI VA ILMIY-
NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Etnik madaniyatni o'rganishga qaratilgan ilmiy- nazariy konsepsiyalar

O'zbek xalqi tarixi va etnik madaniyati ko'p asrlardan beri mutafakkirlar, tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. Muqaddas «Avesto»da va antik davr tarixchilari (Plutarh Strabon, Kutsiy Ruf va b.) asarlaridayoq ajdodlarimiz haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Islom madaniyatining O'rta Osiyoga tarqalishi bilan o'lkamiz xalqlari etnik madaniyatiga oid ilmiy, ma'rifiy, falsafiy, tarixiy, diniy asarlar paydo bo'ladi va ular jahon tafakko'ri xazinalaridan munosib joy oladi. Xorijlik olimlar, sayoxatchilar esa o'zbek xalqi tarixi va madaniyatiga oid tadqiqotlar olib bordilar.

Madaniyat (xalq madaniyati) ichki tuzilishi va xususiyatlari, ijtimoiy borliqda namoyon bo'lishi va tashkil etilishi, ma'naviy-tarbiyaviy hayotdagi o'rni bilan murakkab, ko'p qirrali, sotsiodinamik xodisadir. Etnik madaniyat esa ushbu xodisaning ma'lum bir xalq, millat ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy hayoti, turmush tarzi bilan bog'liq, etnosning tarixiy-madaniy paradigmasiga aylangan o'zak qismidir.

Etnik madaniyat xalqning, millatning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlarini, tashqi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish, o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy voqelik, ayniqsa inson va xalq hayotining barcha tomonlariga taalluqli madaniyat ko'p omillilik, komplekslik, sinkretiklik, universallik, turg'unlik va o'zgaruvchanlik xususiyatlariga ega. Madaniyatning ushbu xususiyatlarini hisobga olmasdan uning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotdagi o'rnini ham, ichki tuzilishi va fo'unksiyalariga oid belgilarini ham to'g'ri anglash mumkin emas. «Jamiyat va madaniyat aynan bo'lmasada, - deb yozadi S. Shermuhammedov va A. Ochildiyev, - jamiyatning hamma soxalarida madaniyat mavjuddir. Shunday ekan, jamiyatning madaniyat rivojlanishiga ta'sirini, bu ta'sir qanday shakllarda amalga oshishini tushunib

olmay turib, madaniyat deb atalmish o'lgan ijtimoiy xodisaning mohiyatini oxirigacha aniqlab bo'lmaydi.»¹

Agar ushbu yondashuvni etnik madaniyatga tadbiq etsak, madaniyatni etnosning shakllanish jarayoni bilan retrospektiv bog'lashga to'g'ri keladi, chunki etnos shakllanish jarayonisiz etnik madaniyat yo'q. O'zbek xalqining kelib chiqishi, etnogenezi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. S.P.Tolstov yozganidek «Yir yuzidagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham tarixan qadimda va o'rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan qabilalar va elatlardan shayutlangan».² M.Ermatovning ta'kidlashicha, o'zbek xalqi etnik madaniyatiga xos belgilar ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq ko'zga tashlanib, keyingi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlarida yanada aniqroq ko'rinishda namoyon bo'ldi. Masalan, yarim ko'chmanchi, va o'troq turmush tarzi ana shunday belgilardir. O'zbek xalqi etnogenezi masalalarini o'rganishga qiziqish mustaqillik yillarida avj oldi. Ommaviy axborot vositalari va maxsus nashrlarda bildirilayotgan fikrlarni umumlashtirib, K.Sh.Shoniyozov yozadi: «Etnografiya fanida elatni (millatni ham) belgilovchi bir qancha alomatlar mavjud: xudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyliigi, ong tizimi, etnosning uyushqoqligi, ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, o'z etnik nomiga (etnomiga) ega bo'lishi, din umumiyliigi va bir qancha boshqa alomatlar.

Albatta, bu alomatlar etnosning shakllanish jarayonida ishtirok etishi kerak bo'lgan Ammo, amalda esa bu alomatlarni barchasi elatning shakllanayotgan kezzlarida muayyan bir vaqtda hozir bo'lishi yoki bir davrda muxim rol o'ynashi mumkin bo'lmagan. Etnik alomatlarining biri, balki bir nechitasi bir vaqtda hosil bo'lsa, boshqasi esa qeyiyaroq paydo bo'lishi mumkin. Ma'lum bir etnosni tashkil topishida til bosh rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi bir elatning paydo bo'lishida xo'jalik, uchinchisida esa moddiy madaniyat yitakchi alomat bo'lishi ehtimoldan holi bo'lmasa kerak».

¹ Shermuhamedov.Sh.Ochildiyev.A. "Madaniyat va sivilizatsiya". –Farg'ona, 2000. 26-27-b.

² Tolstov S.P. Drevnaya kultura. O'zbekistana. -T.: 1943.-5-b

Demak, etnik madaniyat etnogenezda muhim omildir, biroq uning barcha komponentlari bir vaqtda to'la namoyon bo'lavermaydi. O'zbek xalqi etnik madaniyati (etnik madaniyati)ni o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar va yondashuvlarni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin.

- I. Tarixiy-arxeologik yondashuv;
- II. Mifologik-diniy yondashuv;
- III. Sotsiologik yondashuv;
- IV. Folkloristik yondashuv;
- V. Jug'rofiy-etnografik yondashuv;
- VI. Ijtimoiy-pedagogik yondashuv;
- VII. Badiiy-estetik yondashuv;
- VIII. Sivilizatsion yondashuv;
- IX. Sotsiologik (sotsiodinamik) yondashuv;
- X. Falsafiy-madaniy yondashuv va b.

Eng avvalo shuni aytish zarurki, ushbu yondashuvlar ijtimoiy-tarixiy rivojlanishdan o'ziga ta'lluqli yo'nalishlarni tadqiq, etadi. Ularning har biri etnik madaniyatdan o'z tadqiqot maqsadlariga ta'lluqli belgilarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni qidiradi va ularni ilmiy-nazariy baholaydi. Tarixiy-arxeologik yondashuv o'zbek xalqi etnik madaniyatining ijtimoiy-tarixiy paydo bo'lishi va rivojlanishini tarixiy-arxeologik manbalar, ashyolar, dalillar asosida tadqiq etadi. O'rta Osiyo, I. Jabborov qayd etganidek, «o'ziga xos tarixiy-etnografik va xo'jalik-madaniy tiplar yaratgan mintaq. Unda yashovchi xalqlarning kelib chiqishi va tarixiy taqdiri umumiy harakterga ega. Tarixda umumiy etnik ildizga ega bo'lgan, muayyan xududda joylashgan, ammo turli til, madaniy-xujalik tipdagi har xil elatlar doimo uzaro yaqin munosabatlarda bo'lib, aralashib kelgan va uzoq murakkab tarixiy jarayonni boshidan kechirgan»¹. Demak, o'zbek xalqi etnik madaniyati, tabiiy ravishda, O'rta Osiyo mintaqasida yashayotgan qardosh xalqlar etnik madaniyati bilan bir ijtimoiy-tarixiy negizga ega, moxiiyatan yaqindir. Buni Janubiy Turkmaniston,

¹ Ermaton M. Etnogenis I formirovanie o'zbekiskogo narado. T.: O'zbekistana, 1968. 8-9-b.

Janubiy Qozog‘iston, Tyanshan-Pomir etaklari, Kaspiy dengiz soxillari, Markaziy Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida topilgan arxeologik topilmalarning o‘xshashligi ham ko‘rsatadi.

Tarixiy-arxeologik topilmalar O‘rta Osiyoga aholi old Osiyodan paleolit davridayoq ko‘chib kela boshlaganidan darak beradi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq o‘lkamiz xalqlarining etnik xususiyatlarini ifoda etuvchi xo‘jalik-madaniy tiplari yuzaga kelgan. Maxalliy qabilalar va jamoalarning integratsion alokalari umumiy ko‘rinishdagi etnik madaniyatning shakllanishiga asos bo‘lgan natijada ovchilik, baliqchilik, keyinroq esa dexqonchilik va chorvachilikka asoslangan o‘lkamizning jug‘rofiy xususiyatlariga mos «xo‘jalik-madaniy tiplari» tashkil topgan. XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida N.I.Veselovskiy, A.A.Divayev, N.I.Mellitskiy, V.V.Bartold, B.L.Vyatkin, Akrompolvon Asqarov, T. Mirg‘iyosov olib borgan tarixiy-arxeologik qazishmalar o‘lkamiz xalqlariga, shu jumladan, o‘zbek xalqiga xos turmush tarzi, xo‘jalik yuritishi, savdo-sotiq ishlari, amaliy san‘ati va og‘zaki ijodining etnik xususiyatlarini anglashga yordam berdi. Keyinchalik, tarixiy-arxeologik izlanishlarni A.Yu.Yakubovskiy, G.P.Chabrov, G.V. Grigoryev, A.P.Okladnikov, C.P.Tolstov, M.Ye.Masson, V.A. Shishkin, Ya.R.G‘ulomov, B.D.Jukov, G.A. Pugachenkova, E.V. Rtveladze, V.V.Lunin kabi olimlar davom ettirdilar. Ushbu tadqiqotlarda O‘rta Osiyo sivilizatsiyasining jahon sivilizatsiyalarida tutgan o‘rni, uning Xitoy, Hindiston, Eron davlatlari va Yevropa qit‘asi bilan integratsion aloqalari tarixiy-arxeologik manbalar bilan ochib berildi¹. To‘g‘ri, ularda, ayniqsa sovet totalitar tuzumi davrida yaratilgan tadqiqotlarda Yevropotsentrizmga moyillik bo‘rtib turadi. Birok, ularda ham o‘zbek xalqi etnik madaniyatida o‘ziga xoslik va ob‘yektiv sabablar ta‘sirida shakllangan innovatsiyaga moyillik yitakchi xususiyat ekanligi yakdillik bilan qayd etiladi.

Mifologik-diniy yondashuv o‘zbek xalqi etnik madaniyatini afsonalar, rivoyatlar, gayrihayotiy xikoyalar - miflar, diniy tasavvurlar orqali tadqiq

¹ Shoniyoov Sh.K. O‘zbek xalqining etnogenezig oid ba‘zi nazariy masalalar. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998, 6-son. -33 b.

etishdir. Miflar kishilar ruxini, badiiy-estetik qarashlarini, olam haqidagi tasavvurlarini ifoda etadi. Ayniqsa, Sharq xalqlari uz orzu xayollari va utmishini mifologik obrazlarda, tasvirlarda ifodalashga o'ta moyil ekanini kuzatamiz. Agar, Yangi Dunyo va Yevropa kishisi qadimdan g'ayrixayotiy sovellarga ochiqdan-ochiq kurashib kelsa, Sharq xalqlarida mifologiyaga, g'ayritabiiy kuchga ega valiylar, paygambarlar va avliyolarga ishonish hamon kuchlidir. Shuning uchun ham, miflardan foydalanilgan badiiy asarlar xalqimiz, kishilarimiz his-tuygulariga tez ta'sir kiladi. Hozir dunyoda, xalqlar xayotida global o'zgarishlar kechmoqda. Sharq dunyosida yevropotsentrizm keng yoyilmoqda. Har yili Osiyo qitasidan Yevropaga 4 mln.ga yaqin kishi ko'chib ketayotgani kuzatiladi. Bu jarayonlar tarixiy-madaniy paradigmalarga ta'sir etmay qolmaydi. Natijada xalqlar o'z etnik madaniyatining o'zagi (yadrosi) bo'lgan mifologik-diniy tasavvurlarini ximoya qilishga o'tishi tabiiy xoldir.

Shuning uchun ham Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi ham o'zining diniy qadriyatlarini asrashga, zardushtiylik, islomga oid axloqiy-ma'naviy boyliklardan unumli foydalanishga intiladi. Mifologik-diniy yondashuvni tarixiy-madaniy, ma'naviy izlanishlarga N.Komilov, I.Karimov, I.Jabborov, X.Abdusamedov, A.Saidov, T.Maxmudov, M.Imomnazarov, A.Choriyev, T.Karim kabi olimlar tadbiq etib keladilar.

Ularning izlanishlarida zardushtiylik va islom qadriyatlarining xalqimiz ma'naviyatiga ta'siri hamda undagi o'rni milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan ochib beriladi.

Xalqimiz ruxiy-ma'naviy komillik masalalariga muxim e'tibor bergan, lekin u xayotiy muammolarni esdan chiqarmagan. Bu o'rinda Naqshbandiyni («Diling Olloxda bo'lsin, qo'ling- mehnatda») tarixni eslash o'rinlidir. Mashrab esa barcha ruxiy-ma'naviy izlanishlar markazida inson ko'rishini ifodalab, «Shariat ham, tariqat ham, haqiqat ham mendadur» degan antropologik g'oyani ilgari surgan. Ming afsuski, ushbu antropologik g'oya keyinchalik, diniy mutaassiblikning ta'sirida rivojlantirilmadi. Sotsiologik yondashuv xalq,

millat tilining yuzaga kelishi va ma'lum bir xududlarda tarqalib, etnomadaniy xodisaga aylanishi qonunlarini, xususiyatlarini o'rganishdir.

Shubxasiz, avvalo og'zaki so'zlashuv tili yuzaga kelgan. Qadimgi xorazmiylar, baqtriyaliklar, parfiyaliklar, marg'inonliklar, sug'diylar, chochliklar, boharistonliklar o'ziga xos so'zlashuv tillariga ega bo'lgan Ular axmoniyilar (er.av. IV-III asrlar), grek-makedoniyaliklar (er.av. III-er.I-asrlar), Turk xoqonligi (551-744 y.) davrlarida nafaqat xududiy keng tarqalgan, xuddi shuningdek, transformatsiyaga ham uchragan.

O'lkamizda yozuv tili er.av. bir minginchi yillarda finikiy yozuvining oromiy yozuvi orqali paydo bo'lgan. E'tiborli manbalarga qaraganda, xatto o'lkamizdagi xorazmiylar, baktriyaliklar, sug'diylar o'ziga xos tillarda, laxjada gapirishgan bo'lsalar-da, rasmiy ishlarini oromiy yozuvida olib borganlar. Er. av. VI-IV asrlarga kelib eron (fors) yozuvi axmoniyilar davlati (O'rta Osiyo ham unga qarashli edi) ning tiliga aylanadi. Er. av. III-I-asrlarda o'lkamizda baqtriylar yozuvi, greklar yozuvi, hind (braxmo) yozuvi, paxlaviy (o'rta fors) yozuvi, suriy-nestorian yozuvi va hozirgacha kelib chiqishi aniqlanmagan, yozuvi, fors- sug'diylari yozuvi amalda bo'lgan. Xullas, uch ming yillar ichida O'rta Osiyo va Eron xududida fors-tojik va turk xalqlarining yozuv tili shakllangan. Hozir yozuvlarning o'zgartirilishi to'g'risida turli qarashlar mavjud bo'lsa-da, barcha yozuvlar boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalarning kengayishiga olib kelganini, natijada o'zbek xalqi etnik madaniyatiga xos innovatsiyaga moyillikni yangi bosqichga ko'targanini inkor qilib bo'lmaydi.

Folkloristik yondashuv etnik madaniyatni xalq og'zaki ijodining ertak, doston, maqol, matal, qo'shiqlar kabi ko'rinishlari orqali o'rganishdir. N.Raxmonov va B.Sarimsoqovlarning fikriga ko'ra, qadimgi turkiy xalqlarda yirik epik folklor janri bo'lmagan, ular dastlab qaxramonlik qo'shiqlari, ixcham bayon qiluvchi xikoyalar shaklida bo'lgan¹. Bu esa folklor asarlarini yodda saqlab qolishni, bir avloddan ikkinchi avlodga yitkazishni, jug'rofiy tarqalishini osonlashtirgan. Folklor asarlarida o'zbek xalqining ezgulik va

¹ Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T.: O'qituvchi, 1994. -19 b.

yovuzlik, ijtimoiy adolat, farovon hayot, mehr-muxabbat kabi umuminsoniy g'oyalari ifoda etilganki, aynan ular bois etnik madaniyatda «boqiy mavzular» shakllangan. Xalq qo'shiqlarida,- deb yozadi Iso Jabborov, - «insonning yuksak tuyg'ulari, pok sevgisi, sadoqatlilik, do'stlik kabi fazilatlarini bilan birga og'ir ijtimoiy axvoli, jabr-zulmlar, bevafoqlik, tushkunlik, alam-sitamlari qayg'uli ravishda kuylanadi. Ayniqsa, xazil qo'shiqlar xotin-qizlar axvoliga oid bo'lib, ularning oilada va jamiyatdagi fojiali turmushi tasvirlangan. Keng tarqalgan ashulalarda ijtimoiy jabr-zulm va adolatsizliklar o'z ifodasini topgan».

Demak, xalqimiz tarixiy-madaniy hayoti o'tmishda har doim ham «go'zal», farovon bo'lmagan. Folklor asarlari xalq qalbidagi uy, fikr, orzular bilan hamoxang bo'lgani uchun ularda etnik madaniyatning eng muxim qirralari aks etadi. Shuning uchun ham mustakillik yillarida folklor asarlarini to'plash, o'rganish, xalq og'zaki ijodidagi progressiv g'oyalardan milliy tiklanishda, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda foydalanishga qiziqish oshmoqda.

Jug'rofiy-etnografik yondashuv xalq madaniyatidagi xududiy rang-barangliklarni, har bir xududda yashovchi kishilarning xayot tarzi, urf-odatlarini, kiyinishi, bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlari, tabiiy olam bilan bog'liqlik jihatlari, xo'jalik yuritish usullari kabilarni o'rganishni nazarda tutadi.

Chor Rossiyasining o'lkamizga bo'lgan qiziqishi paydo bo'lgan XVI asrdan beri O'rta Osiyoni jug'rofiy-etnografik tadqiq etish davom etib keladi. Bu o'rinda A.Jenkinson (1558-y.), knyaz A.Bekovich-Cherkasskiy va I.Buxgolts (1718 y.), F.Benevi (1725 y.), D.Gladishev va I. Muravin (1740-1743 y.), F.Yefremov (1774-1782 y.) ekspeditsiyalarini eslash mumkin. O'zbek xalqi etnografiyasini ilmiy asosda o'rganishga venger Sharqshunosi A. Vamberi, rus olimlari N.N.Muravyov, N.V.Xanikov, G.I.Danilevskiy, P.P.Semyonov, N.Ye.Simakov, V.P.Nalivkin, M.S. Andreyev, Ye.D.Polivanov, L.P.Potapov... kabi olimlar beqiyos xissa qo'shdilar. Ushbu olimlarning tadqiqotlari, birinchidan, o'zbek xalqi tarixi va etnik madaniyatini ilmiy o'rganishni boshlab berdi, bu borada turli fikrlar, g'oyalar, talqinlar paydo bo'ldi. Ikkinchidan, milliy mutaxassis-kadrlarning (tarixchilar, arxeologlar,

etnograflar, geograflar va b.) shakllanishiga turtki bo'ldi, natijada, o'zbek xalqi tarixi va etnik madaniyatini nafaqat «tashqaridan», shu bilan birga «ichdan» o'rganish imkoni yaratildi. Biroq o'sha davrdagi izlanishlarda Chor Rossiyasining maqsadlari ifoda etilmasligi mumkin emas, chunki ekspeditsiyalarga zarur sarf-harajatlarni podsho xukumati ajratardi. Ijtimoiy-pedagogik yondashuv madaniyatning tarbiyaviy va ma'rifiy funksiyalaridan kelib chiqib etnik madaniyatdagi kishilarning ongi, dunyoqarashi va tarbiyasiga samarali ta'sir etuvchi vositalarni, usullarni, pedagogik texnologiyani o'rganadi. Keyingi yillarda etnopedagogika yoki xalq pedagogikasi aloxida fan soxasi sifatida shakllanayotganini kuzatamiz. Bu aslida etnik madaniyatning bir yo'nalishidir. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi» mualliflarining tan olishicha, «Xalq pedagogikasini o'rganish va uni zamonamiz nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqishga ulgurmadik va amaliy faoliyatda qo'llay olmadik»¹.

Bu manbalarning kamligi bilan emas, balki ilmiy muxitning, ushbu soxani o'rganishga hamda mavjud tarbiya sistemasining xalq pedagogikasini jiddiy qabul qilishga tayyor emasligi bilan izoxlanadi. Ammo, xalq pedagogikasidagi deyarli barcha g'oyalar, fikrlar, usullar etnomadaniy xodisa sifatida qaralishi darkor, chunki har qanday pedagogik jarayon madaniy taraqqiyot natijasidir. Badiiy-estetik yondashuv xalq etnik madaniyatini nafosat prinsiplariga binoan bunyod etilgan inshootlar, kishilarning olam haqida tuyg'ularini, qarashlarini ifoda etuvchi musiqa, tasviriy va amaliy san'at asarlari orqali o'rganishdir. Ilk arxeologik topilmalardayoq o'zbek xalqining badiiy-estetik madaniyatiga oid tasavvurlar, g'oyalar va an'analarga duch kelamiz.

O'rta Osiyo xalqlari qadimgi san'atini maxsus o'rgangan L.I.Rempelning ta'kidlashiga ko'ra, ilk topilmalardayoq ajdodlarimiz o'zining dunyo haqidagi tasavvurlarini ma'lum belgilar (krest, yarim krest, doyra yarim, doyra), xayvon-belgilar (naqshga o'xshash xayvonlar, arslon, echki boshlari, ilon), antropomorf xudolar (yarim odam, yarim totem, xo'kiz boshli boltalar),

^{1 1} Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T.: O'qituvchi, 1994. -24 b

mifologik, yarim xudo qaxramonlar (ajdaxo bilan kurashayotgan shox va b.)da ifoda etganlar. Ularda xali badiiy usulga ega bo'lmay turib, ma'lum bir qarashlar o'z aksini topgan.

Inson o'z faoliyati davomida o'zi va boshqalar faoliyatini nafasat mezonlari bilan o'lchanadigan ijtimoiy baxolashga harakat qiladi. Baxolash voqea-xodisalarning qadrini yoki ijtimoiy ahamiyatini anglashning maxsus shaklidir. Insonning voqelikka estetik munosabati aslida voqelikka baxo berishning aloxida turi, voqea-xodisalarni estetik qadrlash usulidir. Biroq, baxolash, barcha ong shakllari singari, o'zining milliy jihatlariga, etnomadaniy belgilariga ega. Masalan, yaponlardek cho'kkalab o'tirib ovqatlanish yevropaliklar uchun qiyin xolatdir. Yoki nafaqat yevropaliklar, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlari ham janubiy afrikaliklarning bir oyoqda uxlashini tasavvur qilolmaydi. Shuning uchun deyarli barcha tadqiqotchilar madaniyatni internatsionalizatsiyalashni nomuvofiq xol hisoblab, har bir etnik madaniyat o'ziga xosligini saqlab qolishi lozim degan fikrni yoqlaydilar. To'g'ri, ba'zi etnomadaniy belgilar yo transformatsiyaga uchraydi yoki iste'moldan chiqadi, bu ijtimoiy-madaniy voqelikka xos xususiyatdir.

Agar, yaponiyaliklar uchun cho'kka tushib ovqatlanish, ayollarning mayda qadam tashlab yurishi, zulular uchun bir oyoqda uxlash estetik madaniyat belgisi hisoblansa, o'zbek xalqining chordona qurib o'tirishi, katta kishiga o'rnidan turib joy berishi estetik qadriyatdir. Demak, har bir xalq o'zining tarixiy-madaniy an'analarida badiiy-estetik qarashlarini ifoda etadi. Sivilizatsion yondashuvni ilm-fanga ingliz faylasufi va tarixchisi A. Dj. Toynbi olib kirgan. Uning fikriga ko'ra, insoniyat lokal sivilizatsiyalar orqali rivojlangan. Ushbu sivilizatsiyalar o'ziga xos bosqichga kiringuncha va o'z paradigmalarini yaratguncha bir-birlari bilan aloqada bo'lmagan.

Sotsiologik yondashuv etnik madaniyatni jamiyat xayotida, tizimlarida, institutlarida, qatlamlarda kechayotgan ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida qaraydi. Keyingi paytlarda ushbu jarayonlarni maxsus tadqiq etuvchi madaniyat sotsiologiyasi yuzaga keldi va etnosotsial tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

Ularda ijtimoiy-madaniy xayotning ichki tizimlari, sistema tarzida kelishi, etnik madaniyatning millatlararo munosabatlarga ta'siri, maorif, maishiy turmush va shaxs kamoloti bilan bog'liq muammolar o'rganiladi.

Jamiyat xayoti va taraqqiyotining madaniy omillarga bog'liqligi, ijtimoiy munosabatlar bilan etnik madaniyat dialektikasi, shaxs-jamiyat-madaniyat sistemasida antropologik va etnologik masalalarning uyg'unlashib kelishi, regional (Yevroosiyo va Markaziy Osiyo) muammolarning ijtimoiy-madaniy modellari taxdil qilinadi. Falsafiy-madaniy yondashuv etnik madaniyatning inson va borliq, inson va jamiyat sistemalari bilan bog'liqligini, xalq ommasining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi o'rnini, milliy madaniyatning jamiyatni transformatsiyalash va modernizatsiyalashga ta'sirini, shaxs ma'naviy kamolotida urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, din, ilm-fan, axloqning tarbiyaviy funksiyalarini o'rganadi. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalqi etnik madaniyatiga bo'lgan qiziqishning doirasi juda keng, ularda, birinchidan, milliy, xududiy, ma'naviy-ruxiy, maishiy va umuminsoniy belgilar butun O'rta Osiyo xalqlariga xos voqelik sifatida tadqiq etiladi. Ikkinchidan, o'zbek xalqi etnik madaniyati azaldan o'zida innovatsiyalarga moyillikni saqlab, uni rivojlantirib kelgan. Bu esa unga dunyo xalqlari bilan integratsiyaga kirishib taraqqiy etish imkonini bergan. Uchinchidan, o'zbek xalqi o'zining harixiy madaniy paradigmalarini asrab kelgan, ularni tashqi tazyiqlar tufayli yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymagan.

1.2. Madaniyatning etnomilliy mohiyati va jahon sivilizatsiyasida tutgan o'рни

Madaniyatning etnomilliy mohiyati, Madaniyatning mavjudligi qabila, elat, millat, davlat, mintaqa bilan bog'lansada, aksariyat hollarda u etnik (milliy) asosga ko'ra farqlanadi. Masalan, muayyan millat madaniyati haqida gapirilganda eng avvalo har bir etnik birlikning boshqalardan farq qilo'vchi, uning ko'pchilik a'zolari tomonidan tan olinuvchi, o'zaro bog'liq va muayyan yaxlitlikni tashkil eto'vchi qadriyatlar, normalar, an'ana va urf-odatlar tizimi tushuniladi. Etnik birlikning yagona sotsial organizm sifatida mavjud bo'lishi madaniyatning bir butun xodisa sifatida rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Zero, faqat muayyan birlik, hamjamiyat doirasidagina madaniyatdagi umumiylik va uning boshqa madaniyatlarning shunga o'xshash namunalaridan farqi shakllanadi, mustahkamlanadi, saqlanib qoladi va rivoj topadi. Demak, har bir millat boshqalardan farq qilo'vchi, o'ziga xos, u yoki bu tarzda ajralib turuvchi o'z madaniyatiga ega. Ayrim hollarda bu o'ziga xoslik shunchalik kuchliki, u tezda ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek va arab, yapon va franso'z madaniyatlarining o'zaro farqli jihatlarini bir qaraganda ilg'ash mumkin.

Bir-biriga geografik joylashuvi, xo'jalik yuritish usuli, tili, diniga ko'ra yaqin bo'lgan madaniyatida esa bunday farqlarni kuzatish nisbatan qiyii. Xususan, o'zbeklar va tojiklar, qirg'izlar va qozoqlar, ruslar va beloruslar madaniyatidagi bunday farqlarni topish jiddiy kuzatishlarni, katta sinchkovlikni talab etadi. Har Holda bunday farqlar birdaniga ko'zga tashlanmasa-da, ular mavjud va bunday tafovutlarni ajratish mumkin. Har qanday madaniyatning o'ziga xosligi milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar va axloqiy normalarda, shuningdek, moddiy madaniyatning kiyim-bosh, uy jixozlari kabi elementlarida ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Buni milliy bayramlar misolida ham kuzatish mumkin.

Chunonchi, o'z ildizlari bilan zardushtiylikning Bahor va Quyosh bayramiga borib taqaladigan yangi yil bayrami Navro'zni ko'pgina xalqlar bayram qiladilar va u har bir xalqda o'ziga xoslik kasb egadi. Xususan, asrlar davomida

chorvachilik bilan shug'ullangan, ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarzi xukmron bo'lgan qirg'iz, turkman xalqlarida va dexqonchilik bilan shug'ullanib, o'troq turmush tarziga ega bo'lgan o'zbek va tojik xalqlarida bu bayramni nishonlash bir-biridan ozmi ko'pmi farqlanadi.

Shunday bo'lsada, madaniyatdagi milliylikni bir madaniyatni boshqasidan farqlovchi milliy o'ziga xoslik bilan bog'lash metodologik jihatdan noto'g'ridir. Har bir madaniyatda qadrdon va yaqin bo'lib qolgan boshqacha aytganda, milliy ham hisoblanadigan elementlarning muayyan qismi aslida nisbatan keng doirada tarqalgan bo'lishi qat'iy haqiqatdir. Masalan, o'zbek madaniyatida boshqa xalqlar bilan umumiy bo'lgan elementlar ham anchagina o'rinni egallaydi. Ular doirasiga mintaq, turk, umuman Sharq yoki islom diniga e'tiqod qilo'vchi xalqlarga xos bo'lgan xususiyaglarni kiritish mumkin. Har qanday madaniyat rivojlanishida etnik, milliy o'ziga xoslikning ustuvorligi madaniyatlarning o'z doirasi bilan cheklanib qolishini, ularning max mahkumligini bildirmaydi. Ayrim orollar va tropik o'rmonlardagi qabilalarii inobatga olmaganda hozirgi davrda bu amaliy jihatdan umuman mumkin emas. Madaniyatlardagi o'ziga xosliklar, madaniyatlar shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari, millat bosib o'tgan yo'lning spetsifikasi bilan ham uzviy bog'liq. Zero, har bir xalq bosib o'tgan yo'l uning tili, adabiyoti, san'ati, me'morchiligi, umuman madaniyatning barcha sohalarida o'zining ifodasini topmay qolmaydi. Shu ma'noda millag madaniyati uning tarixining ko'zgusi hisoblanadi. Madaniyatlardagi o'ziga xosliklarning kamol topishida ular shakllangan jug'rofiy muhitning ta'siri ham katta. Bu ta'sirning rolini mutloqlashtirmagan holda uning turli shakllarda ro'y berishini ta'kidlash zarur. Tarixda ana shu o'ziga xosliklarni mutloqlashtirishga urinishlar ko'plab bo'lgan. Bunday yondashuvlar hozir ham mavjud. Ularning mohamiyati mavjud uchiga xosliklarni o'zgartirmay saqlab qolishga intilishda hamda xalqning o'zligi, yagonaligi, betakrorligi bir butunligini ta'minlashning kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Bu milliy-madaniy o'ziga xosliklarni mutloqlashtirishga urinishlarning bir ko'rinishi, xolos. Chunki jamiyat rivoji davomida u yoki bu millat

madaniyatining o'ziga xosliklaridan kelib chiqib, uning boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan ustunligini asoslashga harakat qilo'vchi oqimlar, qarashlar ham yuzaga kelganini ta'kidlash zarur¹.

"Negritud", "arabizm", "panslavizm" kabi oqimlar ana shu ikkinchi yo'nalishdagi mutloqlashtirishning o'ziga xos ko'rinishlaridir. Bir madaniyatning ikkinchisiga nisbatan ustunligini ilgari suruvchi yuqoridagi kabi qarashlar milliy-madaniy yoki mintaqaviy mumtozlik shaklida o'z ahamiyatiga ko'rag'ayriilmiy bo'lib, biror bir ham hayotiy asosga ega emas. Zero, milliy o'ziga xoslik bilan cheklanib qolish milliy-madaniy taraqqiyotga emas, aksincha milliy mahdudlikka, oxir-oqibatda esa shu madaniyatning xalokatiga olib keladi. Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik madaniyatlarning o'zaro ta'siri va boyishi tabiiy jarayon bo'lsa-da, ilmiy adabiyotlarda hech qanday o'zaro madaniy ta'sirlashuv yo'q, har bir madaniyat o'zicha paydo bo'lib mustakil rivojlanish yo'lini bosib o'tadi, uzga madaniyatlar rivojida hech qanday iz qoldirmay xalokatga yuz tutadi, degan qarashlar ham mavjudligi ma'lum. Bunday qarashlar madaniyatlar rivojining o'ziga xos talqini sifatida yashash xuquqiga ega bo'lsa-da, u tarixiy asosga ega emasligini qayd etish lozim. Zero, tarix madaniyatlarning doimiy ravishda bir-biriga ta'sir ko'rsatganidan, bir qadriyatlarning boshqa madaniyatlar zaminida ildiz otib, gurkirab rivojlanganidan dalolat beradi.

Madaniyatlarning o'zaro ta'sirlashuvi va boyishi haqida gap ketar ekan, bu jarayonga etnosentrizm, ya'ni o'z madaniyatini yuksak madaniyat namunasi, deb bilish, o'z milliy qadriyatlarinigina etalon sifatida talqin etish, o'zga madaniyatlarga past nazar bilan qarash, ularni g'ayrimadaniy xodisa sifatida baxolash jiddiy zarar yitkazishini ta'kidlash zarur. "Taraqqiy qilgan va qaloq madaniyatlar", "rivojlangan va primitiv madaniyatlar" degan ta'riflar ana shunday yondashuv yashiringan. Tabiiyki, o'zgacha milliy-madaniy qadriyatlar muayyan madaniy mezonlar nuqtai nazaridan talqin qilinadigan, faxrlanadigan

¹ O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Ikki jildlik. 1-jild.-T.: O'qituvchi, 1995. -23-6

bo'lsa o'zaro ta'sir va boyishga umid bog'lash nihoyatda mushkul. Vaholanki, boshqa madaniyatga millat bosib o'tgan tarixiy yo'l, u yashayotgan muxit, ishlab chiqarish va turmush tarziga xos xususiyatlardan kelib chiqib yondashish zarur. Shundagina uning mohiyatini, unda ifodalayotgan umuminsoniy mazmunni anglash, madaniyatlar tizimidagi betakror o'rnini to'g'ri baxolash mumkin bo'ladi.

Demak, o'z madaniyati, uning qadriyatlar olamidan, unga mansublikdan g'ururlanish boshqa madaniyatlarga hurmat va e'tibor bilan qarashi ham taqozo etadi. Ana shundagina o'zaro hamkorlik uchun yo'l ochiladi. Shuning uchun ham, insoniyat madaniyagining buyuk namoyandalari o'zga xalqlar, madaniyatlarga o'zlarining chuqur hurmatlarini namoyon etganlar. Chunonchi, ulug' ajdodlarimiz milliy madaniyatimiz yutuqlari bilan xaqli ravishda faxrlangan xolda o'zga madaniyatlarga katta hurmat bilan qarab, ularni har tomonlama bilish, o'rganish va tushunishga harakat qilganlari ham fikrimizning isboti bo'la oladi.

O'zaro ta'sir jarayonida hamma vaqt bir milliy madaniyatga o'zga madaniyat elementlari kirib keladi. Bunday o'zaro boyish, ulardagi umumiy tomonlarning yuzaga kelish jarayoniga baynalmilallashuv (internatsionallashuv) deyiladi. Tarix bunday o'zaro ta'sir va boyish jamiyat rivojlanishiga hamoxang ravishda tezlashib borishini ko'rsatadi.

Madaniyatdagi internatsional elementlarning yuzaga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar bilan bir qatorda geografik muhitning ham o'ziga xos o'рни va ta'siri bor. Shunday bo'lsa-da, baynalmilallikni faqat muayyan mintaqa xalq umri madaniyatidagi umumiy tomonlar deb tushunish, yani uni mintaqaviylikka olib borib tashlash noto'g'ri bular. Masalan, Markaziy Osiyo bilan arab mamlakatlari o'rtasida geografik yaqinlik yo'q. Ammo yagona dinga mansublik ular madaniyatidagi muayyan umumiylikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu baynalmilallik bir qator milliy madaniyatlarga xos bo'lgan umumiy tomonni ifodalashini ko'rsatadi. Bunda u yoki bu xodisani baynalmilal, deb baholayotganda qanday mezon olinayotgani ham muxim

ahamiyatga ega. Chunki millat madaniyatining ba'zi elementlari bir, ayrimlari esa boshqa mintaqalar xalqlari madaniyati bilan umumiy bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda madaniyatdagi mintaqaviy umumiylikni bir tomonlama talqin qilish ham o'rinsiz ekanini ta'kidlash zarur. Xususan, "yevropamarkazchilik", "osiyomarkazchilik" yoki "afrikamarkazchilik" kabi o'ta zararli qarashlar ana shunday bir yoqlamalikka - mintaqaviy o'ziga xosliklarni mutloqlashtirish, o'z madaniyati mezonlaridan kelib chiqib, o'ziga mintaqalar madaniyatini baxolashga intilishning xosilasi hisoblanadi. Bunday qarashlar siyosatning g'oyaviy asosini tashkil qilganda esa madaniyatlar rivojida salbiy, ba'zan fojiali xolatlarni keltirib chiqargan. Sho'ro tuzumi davrida madaniyatimiz rivojlanishida sodir bo'lgan ayrim salbiy xodisa, jarayonlar ham fikrimizning isboti bo'la oladi. Mintaqaviy o'ziga xosliklarni mutloqlashtirish haqida gap ketar ekan, uni global talqin qilish shakli, Sharq va Fapb madaniyatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish Xolati ham mavjudligini ta'kidlash zarur. Yangi davrda (XVI-XVII asrlar) Yevropada paydo bo'lgan bunday qarashlar xristian (lotin tili) va islom (arab tili) madaniyatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, Sharqning qoloqligi, taraqqiyotga layoqati yo'qligini asoslashga urinishning natijasi edi. Keyinroq bu qarashlar Barbning butun Sharqqa nisbatan sivilizatorlik roli haqidagi qarashlar bilan to'ldirildi. Bunday qarashlar mutloqo asossiz ekanini, Sharq jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan, ham hissa qo'shganini isbotlash uchun uzoqqa borish shart emas. Chunonchi, Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarisiz jahon ilmiy tafakko'rining bugungi rivojini tasavvur qilish mumkin emas. Antik Yunoniston falsafasi Yevropaga o'rta asrlarning oxiri va Uyg'onish davrida aynan Sharq faylasuflari asarlari orqali ma'lum bo'lgani va falsafa ilmi rivojlanishining yangi bosqichini belgilab bergani ham tarixiy faktdir¹.

Jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan yutuqlar har bir milliy madaniyatda mavjud. Sharq va Fapb madaniyati doimo o'zaro ta'sirda bo'lib, bir-birining boyishiga xizmat qilganini ko'rsatuvchi misollarni ham

¹ Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to'plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O'zbekiston, 1997.-199 b.

istagancha topish mumkin. Ammo bir narsa aniq Sharqning qoloqligi, G'arbning ilg'orligi haqidagi qarashlar Sharq tarixi va madaniyatini umuman bilmaslik, uni gayriilmiy talqin qilish oqibatidir. Sharqning hozirgi zamon tarixi ham bunday qarashlarning o'rinsizligidan dalolat beradi. Chunonchi, XX asrning ikkinchi yarmida qotib qolgan, o'zgarishlarga moyil bo'lmagan, deb qaralgan Sharq jadal ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish bosqichiga kirdi. Yaponiya mo'ljizasi, "Osiyo yo'lbarzlari" (Janubiy Koreya, Filippin, Tailand)ning keskin taraqqiyoti, Malayziya, Indoneziya kabi islom dini ustuvor bo'lgan mamlakatlarning jiddiy yuksalish yo'liga kirishi bu g'oyalarni chippakka chiqardi, Sharq va ijtimoiy taraqqiyot bir-biriga zid tushunchalardir, degan qarashlarning asossizligini yana bir marta ko'rsatib berdi. Respublikamizning mustaqillikka erishib, barqaror rivojlanish yo'lidan dadil odimlab borayotgani ham yuqoridagi fikrlarning mantiqsizligini ko'rsatadi. Madaniyatlarning o'zaro ta'sirlashuvi, ularda baynalmilal jihatlarning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi fikrlarni davom ettirgan holda bir xususiyatni-baynalmilal elementlar barcha madaniyatlarda bir paytda va birdaniga yuzaga kelmasligi imi alohida qayd etish lozim.

Avvalo, bunday elementlar bir madaniyat doirasida yuzaga kelib, keyin boshqa madaniyat ichiga kirib boradi, o'ziga xos milliy bo'yoq va mazmun kasb egallaydi. Masalan, xorijda paydo bo'lgan opera, balet, kino kabi madaniyat xodisalari ta'sirida o'zimizning betakror va o'ziga xos milliy opera, balet, kino san'atimiz shakllandi. Ayni paytda, bu soxalarda erishgan yutuqlarimiz, betakror san'at asarlarimiz va yituk ijodkorlarimiz faoliyati qo'shni xalqlarda ushbu sohalar rivojiga u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatayotgani ham hech kimga sir emas. Demak, bir madaniyat doirasida shakllangan xodisalar boshqa madaniyatlarga singishi, milliy ro'x bilan sug'orilgan holda o'z doirasidan chiqishi, ya'ni yangidan internatsional mazmun kasb etishi mumkin. Milliy madaniyatlar tarkibidagi ayrim xodisalar, masalan, fan o'z mohiyatiga ko'ra internatsionaldir. Zero, ijodkorlari qaysi millatga mansub bo'lishidan, ilmiy haqiqat turli tillarda ifodalanishidan qat'i nazar, fan xulosalari, teoremlari,

aksiomalari, formulalari ob'yektiv harakterga ega bo'lgani uchun ham barchaga birdek tushunarlidir. Madaniyatdagi milliy, baynalmilal, umuminsoniy elementlar haqida gap ketganda metodologik ahamiyatga ega bo'lgan bir masalaga diqqatni karatish lozim. "Milliylik", "baynalmillalik" va "umuminsoniylik" kategoriyalari bir-biri bilan "yakkalik", "xususiylik" va "umumiyluk" kategoriyalari kabi dialektik birlikni tashkil etadi. Xususiylik va umumiyluk kategoriyalari bir-biri bilan umumiyluk darajasiga ko'ra farqlanganidek baynalmillalik va umuminsoniylik kategoriyalari ham o'zaro shunday farqlanadi. Qanday madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra milliydir. Chunki uning yaratuvchisi o'z tarixi va turmush tarziga ega bo'lgan muayyan xalqdir.

Shuning uchun ham, har qanday madaniyat, uning yaratuvchisi ko'p yoki kam sonli bo'lishidan qat'i nazar, o'z tabiatiga ko'ra noyob va betakrordir. Ammo har qanday madaniyat hech qachon "sof" milliy bo'lolmaydi. Zero, har qanday millat madaniyati ham milliy, ham baynalmilal, ham umuminsoniy elementlarga ega bo'ladi. Biz odatda milliy deb qabul qiladigan xodisalarimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra chuqur umuminsoniy harakterga ega. Masalan, Sharq xalqlariga xos kattalarga hurmat, mexmondo'stlik, bolalarga muhabbat, sabr-toqatlilik kabi xodisalar umuminsoniy qadriyatlarning milliyligida namoyon bo'lishidir. Bunday jihatlar har qanday madaniyatni o'zga xalqlar, butun insoniyat madaniyati bilan uzviy bog'liq xolda hisoblanadi. Umuman olganda, insoniyat madaniyati o'zini baynalmilal va umuminsoniy belgilar orqali namoyon qiladigan milliy madaniyatlar birligidir. Madaniyatlar rivojida milliylik, baynalmillalik va umuminsoniylikning birligi esa yaxlit va serqirra jarayon sifatida universal ijtimoiy qonunlar zahirida rivojlanadi va turli xalqlar tarixiy-madaniy faoliyatining natijasi sifatida chiqadi.

Madaniyat g'oyat murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy, ma'naviy, moddiy qadriyatdir, U tor va keng ma'nolarga ega: tor ma'noda ma'naviy madaniyat tarzida talqin etiladi. Bunda kishilar, xalqlarning madaniyat darajasi, ijtimoiy ong shakllarining qanchalik rivojlanganligi, ularga bog'liq bo'lgan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati, odamlar va ular uyushmalari o'rtasidagi munosabatlarning

insoniylik xususiyatlari nazarda tutiladi. Masalan, falsafiy madaniyat, muomala madaniyati, axloqiy madaniyat, savdo-sotiq madaniyati ovqatlanish madaniyati, uy-ro'zg'or tutish madaniyati, xulq-odob madaniyati va hokazo, keng ma'noda esa madaniyat xalq ommasi yaratgan, tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy boyliklar yig'indisini ifoda qiluvchi falsafiy kategoriyadir. Bunda odamzod ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy kamoloti, tabiat va jamiyat kuchlariga ta'siri o'z ifodasini topadi.

Demak madaniyat kategoriyasi odamzod tajribasi, bilimlari, texnika vositasi bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni mujassamlashtiradi. Bundan moddiy va ma'naviy madaniyat mavjud, degan xulosa chiqadi.

Ma'naviy madaniyat kabi moddiy madaniyat kategoriyasi ham juda murakkab va ko'p qirralidir. Masalan, ishlab chiqarish va texnika madaniyati, dehqonchilik madaniyati, mehnatni tashkil qilish madaniyati, qurilish madaniyati, turmush madaniyati, injenerlik madaniyati, pazandalik madaniyati xokazolar moddiy madaniyatga kiradi. O'z navbatida moddiy madaniyatning konkret shakllari ham juda murakkab. Misol uchun turmush tarzini olib ko'raylik. U ham moddiy, ham ma'naviy xodisalarni qamrab oladi. U uy-joy kiyim-kechak, uy jixozlari, ozodalikq pazandalik mexmonnavozlik oila va jamiyat, maishiy xizmat, dam olish kabi jihatlarni qamrab oladi¹.

Ma'naviy madaniyat fan, falsafa, san'at, adabiyot, axloq din, xuquq siyosat, maorif, ma'rifat va xokazolar yig'indisidan tashkil topadigan insonning ichki ma'naviy ruhiy olami, insoniyat jamiyatining muayyan holatidir.

Respublikamizda xalqaro miqyosda e'tirof qilingan chinakkam xalqchil, umumbashariy ahamiyatga moillik madaniyat qaror topganligini aytish o'rinlidir. Madaniyatimiz qudratli ta'sirining manba'lari, birinchidan, xayrli an'analarning tarixiy ildizlari chuqurlashida, ikkinchidan, hayot haqiqatiga sodiqligida, uchinchidan, insonparvarligi va optimizmida, to'rtinchidan, xalqimizning ma'naviy-axloqiy kamoloti yuksakligidadir. Davlatimiz mehnat axlining ma'naviy va moddiy madaniyat boyliklarini to'laroq chuqurroq o'zlashtirishga, ularni badiy

¹ <http://www.lawbook.ru>

ijodkorlikka faol jalb etishga katta ahamiyat berayotir. Yana u xalqimizni, yoshlarni jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari asosida estetik tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilib kelmoqda.

Xolis aytganda, qo'yilgan maqsad o'z olijanoblighi, insoniyligi bilan tavsiflanardi.

«Madaniy inqilob»ni amalga oshirish jarayonida qisqa muddatda O'zbekiston aholisi yalpi savodxon bo'lib qoldi, jahon madaniyati durdonalaridan foydalanib, ilm-fan salohiyati rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetdi. Ishlab chiqarish hozirgi zamoy texnikasi va texnologiyasi bilan qurollandi. Qishloq xo'jaligida ilm-fan yo'tuqlari jadal qo'llanildi. Texnika va texnologiya, hozirgi zamon informatikasi bilan ishlay oladigan kadrlar ilmiy texnika inqilobi ishib chiqdi. Ijtimoiy, iqtisodiy hayotda, umuman madaniy turmushda ilgari mavjud bo'lmagan qulayliklar vujudga keldi.

Biroq «Madaniy inqilob»da ham partiyaviylik, sinfiylik tamoyillariga amal qilish milliy madaniyatning o'ziga xosligini amalda inkor etishga, uning ovrupolashtirishga, dag'allashtirishga, noinsoniy ma'naviy qiyofaning shakllanishiga, olg'irlik psixologiyasiga yo'l ochib qo'ydi. Toshbag'irlik odamlar, butun-butun xalqlar taqdiriga befarq qarash, loqaydlik andishasizlik, surbetlik, boqimandalik tashqi bezaklarga maxliyo bo'lib ichki insoniy xulq-odob xis-tuyg'ularidan maxrum bo'lish, sharm-xayosizlik mehr-oqibatsizlik kabi holatlar «madaniy inqilob» tufayli an'anaviy (insoniy) turmush tarzini muayyan darajada izdan chiqarishga olib keldi. Ma'naviyatdan maxrum bo'lish o'g'irlik, yulgichilik, poraxo'rlik, qotillik, foxishalik, imon-e'tiqodsizlik avj olish, uchun bir sharoit yaratdi. Shuning uchun ham O'zbekistan Rsspublikasi Prezidenti I.A.Karimov ma'naviyat biz uchun suv bilan xavodek kerak deb yana quyidagilarga e'tiborni qaratmoqda: «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga aloxida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas»¹.

¹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yingilmas kuch" "Ma'naviyat"2008.

Ma'naviy madaniyat o'z shakli jihatidan ikki xil - milliy va baynalmilal (internatsional) bo'ladi. Uning milliy shakli muayyan millat, elatning tarixan tarkib topgan madaniyatidir. U bularga xos turmush tarzi, ruxiy holat, munosabatlarni, xususiyatlarini inkor ettiradi.

O'zbek milliy madaniyatida umumbashariy jihatlar ko'p. Uning mazmuni inson hayoti, uning munosabatlarining barcha yo'nalishlarida ijodiylik faollik yaratuvchi mehnat qilishni ifodalaydi. U g'ayriilmiy, zararli oqimlarga, madaniyatsizlik sharm-hayosizlik toshbag'irlik jaholat va xurofotga tubdan yotdir.

Madaniyat ijtimoiy amaliyot jarayonida butun insoniyat yaratgan hamda muayyan jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni anglatadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yig'indisi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Madaniyat taraqqiyogi muayyan ob'yektiv qonunlarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardan iborat: 1. Madaniyatning vujudga kelishi, bir tipdan ikkinchisiga o'tishi, ishlab chiqarish munosabatlari tasnifi (harakteri), ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ham bog'liq. 2. Madaniyat taraqqiyotida vorislik muxim o'rin egallaydi. Jamiyatda ilgari xosil etilgan, to'plangan moddiy, ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish, ijodiy rivojlantirish orqali madaniyat takomillashib boradi; inkorni inkor qonuni tufayli taraqqiyotning oldingi bosqichidagi tajribalarni tanqidiy o'zlashtirish okibatida yuksaladi. 3. Madaniyat taraqqiyparvar yoki unga zid, eskirgan yoki yangi g'oya, mafko'ra, oqim, mayllar kurashida ham namoyon bo'ladi. Unda har doim ziddiyatlar paydo bo'lib, xal etib boriladi.

Ayrim jamiyatshunoslar madaniyatni moddiy negizidan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdan ajratadilar bu xato. Chunki jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi moddiy iyegiz va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan ajralgan va ulardan yuqori turadigan qandaydir alohida madaniyat yo'q bo'lishi ham mumkin emas. Madaniyat jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda muttasil rivojlnib turadi. Uning tip(tur)lari ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida erishilgan moddiy boyliklar xajmi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar takomili darajasiga asosan muvofiq keladi.

Chunonchi, iqtisodiy rivojlanish G'arb mamlakatlariga ko'r-ko'rona ergashish yo'lidan, texnologik sig'inish xislarini rivojlantirish asosida an'anaviy milliy madaniyatdan endilikda boshqa shaklda judo bo'lishga olib kelib qo'yish xavfi paydo bo'lmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy isloxotlar, texnika taraqqiyoti tarixan ezgu milliy madaniyatning qaror topishi, shu asnoda tobora ketayotgan hozirgi zamon sivilizatsiyasini xalokatdan saqlab qolishga ta'sir o'tkazish yo'lidan borsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bunday milliy va insonparvarlikka xizmat qilish imkonini beradigan diniy qadriyatlardan oqilona foydalanish malakasiga ega bo'lish o'zbek ziyolilari zimmasiga aloxida yuksak mas'uliyat yuklamoqda.

Respublika hukumati kishilarimiz ma'naviy qobiliyatini yanada kengiroq yuzaga chiqarish niyatida ular hayotiy ma'naviy jihatdan boy, ko'p qirrali qilish uchun birmuncha tadbirlarni belgilamoqda. Ma'naviy merosimizni, tarixiy obidalarini avaylab, ardoqlab, e'zozlab rivojlantirishga qaratilgan jamoatchilik tashabbuslarini, bu tadbirlar uchun berilayotgan mablag'larni mamnuniyat bilan qabul qilib olib, ularning egalarini rag'batlantirmoqda. Chet ellar bilan ma'naviy qadriyatlar, jumladan, madaniy kadriyatlarli keng ko'lamda, erkin ravishda almashib turishga katta e'tibor berilmoqda. Bizning xalqimizning doimiy fazilati bo'lgan, haqiqatni bilish yo'lidagi sabotni fan, texnika, texnologiya, va informatikada erishilgan jahon yutuqlarini o'zlashtirishga yunaltirish kerik bo'ladi. Faqat ana o'shandagina O'zbekistan o'zining barcha boyliklarining chinakkam egasi va xaqiqiy madaniy davlat bo'lishi mumkin.

Xalqimizning madaniy merosiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, zamonaviy madaniy boyliklarni ko'paytirish, xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat makomini izchil va tuo'liq ro'yobga chiqarish, respublika hududida yashovchi xalqlarning milliy madaniyatini va tillariga o'zaro xurmat bilan munosabatda bo'lish zarurligi nazariy va amaliy dasturlar talablariga butunlay tegishlidir.

O'zbek milliy madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular asosan quyidagilardan iborat:

Tinch-totuv, do'stona, axil ijtimoiy guruhlardai iborat bo'lgan jamiyatimizning madaniyati umumxalq xususiyatiga ega. Madaniyat jamiyatimizni yangilayotgan mehnat axlini halol-poklik insof-diyonatga yo'naltiradi. U xalqchillik va baynalmilalchilik ruhi bilan sug'orilgan. Ilgarilari butun insoniyatning aql-idroki, uning butun daxosi faqat bir narsa: texnika va madaniyat boyliklarini ba'zi kishilargagina berish, boshqalarni esa eng zarur bo'lgan maorif va taraqqiyotdan mahrum etish uchun ijod qilinardn. Endilikda esa texnikaning barcha mo'jizalari, madaniyat sohasida erishilgan hamma yutuqlari bilimdon insonlar qo'lida bo'ladi va insoniyat aql-idroki va dahosi bundan buyon hech qachon zo'rlik vositasiga aylanmaydi.

Madaniyatimiz eng ilg'or, g'oyat ilmiy, izchil dunyoqarash - ilmiy falsafa bilan chambarchas bog'langani ma'qul. Bu dunyoqarash o'zbek xalqining ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini bilish bilan qurollantiradi, fan va madaniyatning ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, metodologik asos rolini o'ynaydi.

Bu madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita bog'langan. Hayotning o'zgarishi bilan madaniyat ham unga mutanosib ravishda o'zgaradi; turg'unlik va chekinishdan o'zini saqlaydi.

Ushbu madaniyat turli millat, elat madaniyatlarining o'zaro yaqinlashuvidan, shaklan ham, mazmunan ham yagona baynalmilal, umuminsoniy madaniyatga aylanishidan hosil bo'ladi¹.

Sivilizatsiya tushunchasi o'zining ko'p mazmunlilik tufayli unga extiyotkorona munosabatni yuzaga chiqardi. Chindan ham bu tushuncha madaniyat tushunchasining sinonimi tarzida ham, unga qarshi turadigan bir yo'nalish sifatida ham talqin etiladi. Masalan, O.Shpengler sivilizatsiya madaniyatning keksayishi, yuz-tuban ketishi, deb hisoblaydi. A.Toynbi esa fazo va vaqt bilan bog'lanmaydigan ijtimoiy madaniy tuzilma sifatida konkret jamiyatni tavsiflash uchun sivilizatsiya tushunchasidan foydalanadi. Hozirgi paytda yer va kosmik sivilizatsiyalari, ularning bir-biriga yaqinlashuvi tufayli sodir bo'lishi nazarda tutilgan holatlar, xaloqatlar haqida ham gan boryapti.

¹ Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to'plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O'zbekiston, 1997.-199 b.

Bunday talqinlarda muayyan haqiqat bor, ammo ular sivilizatsiya tushunchasiga biryoqlama yondashish natijasidir.

Sivilizatsiya tiplarini belgilashda ham xilma-xilliklar mavjud. Masalan, Sharq va Farb madaniyati, musulmon xristian madaniyati, texnogen madaniyat, aloxida bir xalqning madaniyatini ideallashtirish tufayli o'sha xalq milliy nomi bilan ataladigan madaniyat va boshqa tushunchalar orqali sivilizatsiya yaxlit falsafiy kategoriyalik xususiyatidan maxrum bo'lib qoladi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, shahar bilan qishloq aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat tafovutlarning paydo bo'lishi, pul-tovar munosabatlari takomillashishi natijasida yaxlit jahon bozorining vujudga kelishi va boshqalar xalqlar turmush tarzini jiddiy ravishda o'zgartirishga olib keladi. Bu holat oila, nikox munosabatlari o'rtasida shakllanib kelgan an'anaviy turmush tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Davlat qurilishi tizimi, xuquqiy, siyosiy institutlar, mulkiy munosabatlar, millatlararo aloqalarda yangi bir bosqichni yuzaga keltirdi. Natijada sivilizatsiya tushunchasining o'ziga ham, uning mazmuni va mohiyatiga ham turlicha yondashuvlar sodir bo'lmoqda.

Madaniyat bilan sivilizatsiya o'rtasida umumiylik ya'ni birlik mushtaraklik bor. Ular orasida yana tafovutlar (farq)lar ham mavjud. Umumiylik shundaki, ikkisi ham tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq ommasi yaratgan, tarixan tarkib topgan, moddiy va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar yig'indisi negizida rivojlanadi.

Madaniyat bilan sivilizatsiya orasidagi tafovut shundaki, sivilizatsiya inson bilan insoniyat jamiyatining madaniy o'zgartiruvchilik moddiy va ma'naviy madaniyatni yaratuvchilik faoliyatining bir bosqichi, darajasidir.

«Sivilizatsiya» lotincha «Sivis» so'zidan olingan bo'lib, grajdanlik ma'nosini anglatadi¹. Yoki aholining tarbiyalanganlik sayqal topganlik ma'nolari ham bor.

Odamzod tomonidan tarixan tabiat va jamiyatni o'ziga monand tarzda qayta ko'rish, takomillashtirish, unga sayqal berish, parvarishlash hamda shunga imkon beradigan mehnat qurollari yaratish shu jarayonda odamzod o'z tabiati va mohiyatini ham o'zgartirib borishi, bilimi, malakasini oshirish o'zi yashayotgan

¹ Ibrohim Karimov. Ma'naviyat, falsafa va hayot. –T.: “Fan” nashriyoti. 2007 yil. –B. 91.

maskanda qaror topgan madaniyat boyliklaridan baxramand bo'lib, unga asoslanib yashashga o'rganish, mavjud ijtimoiy borliq undagi munosabatlarning (insoniylik darajasi va boshqalar) sivilizatsiya tushunchasi bilan ifodalanadi. Sivilizatsiya ijtimoiy-madaniy birikma sifatida madaniyatning ijtimoiy borligini ham anglatadi. Shu ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong doirasida odam o'z tanasi va ruxiy olamini parvarishlash, insoniylashtirish uchun kurashish jarayonida sivilizatsiyani rivojlantirishga xissa qo'shadi. Agar keng ma'noda olsak sivilizatsiya xalq va xalqlar ijodiy faoliyati, muayyan soxalardagi muvaffaqiyati, o'ziga xos turmush tarzining namoyon bo'lishi hamdir. Sivilizatsiya tushunchasi tarixan turli ma'nolarni anglatib kelgan. Hozirgi zamonda ko'pincha texnika, texnologiya muvaffaqiyatlari majmuasi va u bilan bog'liq xolda yuzaga kelgan qulaylik (komfort) sivilizatsiya deb tushuniladi. Shu tariqa sivilizatsiya tushunchasi o'ziining ichki, insoniy mazmunidan maxrum bo'lib qoladi.

Sivilizatsiyani turkumlashda xilma-xilliklar ko'p. Chunonchi, ijtimoiy, sinfiy, etnik diniy, davriy tamoyillar asosida turkumlashlar mavjud. Odamzod faoliyatining aniq bir (konkret) jarayoniga nisbatan ham sivilizatsiyaga yondashuvlar bor, Masalan, hozirgi zamon sivilizatsiyasi yozuv paydo bo'lgan davridan boshlab belgilanadi. Yoki texnikani qo'llash bilan bog'liq faoliyat asosida sivilizatsiyaga yondashiladi¹.

Sivilizatsiya tushunchasini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya yoki tarixiy davr tushunchalari bilan aynanlashtirish yoki ularga qarama-qarshi qo'yish yaramaydi. Formatsiyalar to'g'risidagi ta'limot tarixiy jarayonlarni bir qolipga solib, jamiyat taraqqiyotiga, madaniyatga ilmiy yondashuvni cheklab qo'ydi. Tarixiy davr esa insoniyat jamiyati taraqqiyotining muayyan boskichini, ishlab chiqarish usulini, ijtimoiy progress darajasini anglatadi.

Sivilizatsiya esa har qanday formatsiyaga, tarixiy davrga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, unda umuminsoniy, umumbashariy jihatlar yitakchidir.

¹ Ashirov A.O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.-T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2007.-275 b.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasi qudratli ijtimoiy ishlab chiqarish, taraqqiy etgan ijtimoiy munosabatlar, zamonaviy transport va kommunikatsiya vositalariga tayangan keng salmoqli aloqalar, moddiy va ma'naviy boyliklar, xuquqiy xo'jalik va ishlab chiqarishni boshqarishning takomillash uslublari asosida shakllandi. Ilmiy-texnika inqilobi bilan bog'lanib ketgan hozirgi zamon sivilizatsiyasi xayot kechirish qulayliklarini yaratish ma'nosida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Ammo shu bilan birga u xaddan ziyod falokatlarni ham keltirib chiqardi. Bu sivilizatsiya oldida, birinchidan, energetik ikkinchidan, xomashyo, uchinchidan, oziq-ovqat va chuchuk suv to'rtinchidan, ekologiya, beshinchidan, demografik, oltinchidan, termoyadro urushi xavfi, rak va SPID muammolari turibdi. Juda og'ir g'oyat murakkab, o'ta xavfli muammolar bo'lib, ularni xal qilishda har qanday paysalga solish insonit boshiga yangi katta kulfatlar keltirishi mumkii.

Madaniyat odam va odamzod faoliyati bilan uzviy ravishda bog'liq ekanligi yuqorida aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ldi. Odamzod jamiyat bo'lib yashashga u inson (jamiyatlashgan individ) faoliyatining sub'yektiv xususiy tomonlarini, ijtimoiy tuzilma usuli va maromi, hayotiy faoliyat jarayonlarini tartibga solishning zarur omili bo'lib qoldi. Madaniyat inson faoliyatining moddiylashgan va ma'naviy olgan bilimlari, tajribalarini to'plash, ularni avloddan-avlodga uzatish kabi nihoyatda muxim ijtimoiy vazifani bajaradi. Shu ma'noda madaniyatsiz jamiyat yo'q. bo'lishi ham mumkin emas. Masalan. ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, nuqtai nazar (konsepsiya)lar, ta'limotlarsiz hozirgi jamiyatlarni maromli boshqarish, rivojlantirish, takomillashtirish mumkin emas kashfiyot, ixtirochiliksiz, ijodkorliksiz, hozirgi ilmiy-texnika va texnologik taraqqiyotga erishishning iloji yo'q.

Aql-idrok qudrati tufayli yuzaga keladigan hamma soxalardagi bilim, tajriba, kashfiyot inson kamolotiga va jamiyat taraqqiyoti. undagi barcha munosabatlar insoniy tus olishiga xizmat qilishi kerak edi. Ammo ba'zan inson faoliyatining natijalari uning o'ziga qarshi turibdi. Chunonchi, pichoq oshpaz qo'lida taom tayyorlash vositasi, ma'naviy tuban odam ixtiyorida u qotillik vositasiga aylanadi.

Zahar bemorni davolashi yoki odamni o'ldirishga xizmat qilishi mumkin. Atom parchalanishining ixtiro qilinishi natijasida texnika va texnologiyada, ishlab chiqarish va jamiyatni boshqarishda misli ko'rilmagan yangi imkoniyatlar vujudga keldi. Ayni chog'da olimlar ixtirosi bo'lgan atom energiyasi siyosatchilar va harbiylar ixtiyoriga o'tib ketgach, odamzodning o'zini tur sifatida saqlanib qolish xavfi tug'dirdi. Yoki ko'mir, neft resurslari tugab borayotganligi natijasida paydo bo'layotgan atom elektr stansiyalari ma'lum darajada bartaraf etyapti. Ammo mas'uliyatsiz konstruktorlar, injenerlarning faoliyati oqibatida bu stansiyalar, atom qurilmalari katta xavfni keltirib chiqarmoqda¹.

Sivilizatsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga nisbat berib, unga munosabat belgilagan ma'kul bulsa kerak. Ya'ni grajdanlik yoki tarbiya kurganlik madaniyatlik ma'nosida sivilizatsiya madaniyatga, insoniyatning madaniy taraqqiyotiga aslo qarama-qarshi turmaydi, aksincha, uning tarkibiy qismi sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik bo'ladi. Ilmiy texnika inqilobi yordamida va u tufayli insoniyat madaniy taraqqiyotning yangi eng yuqori bosqichiga ko'tarilish imkoniyati bor. Agar madaniyat umuman narsani parvarishlash, unga sayqal berish ma'nosida odamning o'zini-o'zi va jamiyat orqali tarbiyalab borishini ham nazarda tutsa, sivilizatsiya inson ruxiy olamini, ma'naviy-axloqiy qiyofasini tarbiyalashdan iborat fo'nksiyaning bajarani ma'qul, deb o'ylaymiz. Agar Ilmiy texnika inqilobi hozirgidek ma'naviyatdan ajralgan holda davom etsa, chindan ham sivilizatsiya barham topib ketadi. Agar Ilmiy texnika inqilobini inson qalbini munavvar etish, barcha odamda (o'g'ri, poraxo'r, qotil, foxishada ham) potensial ravishda mavjud bo'lgan ezgulikka intilish ruxidan foydalanib, bu ruxni insoniylashtirish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy va ma'naviy salohiyotdan foydalanilsa, shu asosda jamiyatdagi hamma munosabatlar oqilona izga solib yuborilsa, unda odamzod o'z tarixining yangi, ulug' bosqichiga qadam qo'yishi shubxasiz. Demak inson qalbi, ruxini poklash orkali har bir jamiyatda ma'naviy-axloqiy muxitni sog'lomlashtirish insoniyat boshida paydo bo'lgan va tobora quyuqlashib borayotgan «qora bulutlar»ni xaydab yuborishga imkon beradi.

¹ <http://www.troek.net/zakaz.htm.ru>

Ilmiy texnika inqilobi tufayli paydo bo'lgan katta imkoniyat insoniyat aql-zakovati, butun faoliyati sivilizatsiyani qaror toptirishga xizmat qilishi uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyaga biriichi darajali ahamiyat berilishi darkor. Bu maqsadga erishish uchun ilm, madaniyat, ma'rifat axli bilan din axli kuchlarini birlashtirish favqulodda ahamiyatga ega bo'ladi. O'z taqdirini o'zi belgilash, ijtimoiy tanlovda adashmasligi uning har tomonlama komil inson sifatlarini namoyon eta olishida sivilizatsiyaning roli benixoyadir. Inson o'z-o'zini anglashida, milliy maqsadlarini to'g'ri belgilab olishida sivilizatsiya yordamga keladi.¹

Bilim va tadbirkorlik har bir odamga zarur bo'lsa, sivilizatsiya tug'dirgan imkoniyatlardan foydalanib, insoniy fazilatlarga ega bo'lish ham shu darajada zarur. Ana shu ikkisi birlashsa, odamzod ma'naviy boy, axloqiy pok ravon yo'liga kirib oladi. Ma'naviyat yo'liga kirib, hayotini unga bag'ishlagan odam albatta imonli bo'ladi. Imonli odam esa so'zi bilan ishi bir, xalq Vatan ishqida fidoyi, mard, olijanob, insof-diyonatli bo'ladi. Ma'naviy boylik tashki guzallik bilai uygunlashib, odam uzi ulug va mutabar zot ekanini hamma xatti-harakatlari, faoliyatida namoyon etib turadi. Bunday kishilardan el-yurt rozi bo'lgan, xalq ota-onangga, g'arbiya bergan murabbiylaringga rahmat, deydi. Yoshlar ana shunday komil insonlar bo'lish imkoniyatiga ega. Faqat bu imkoniyatni voqelikka aylantirish uchun ichki bir qudratga ega bo'lish lozim. Bu qudrat o'zbek milliy madaiiyatida ham juda yaxshi namoyon bo'ladi.

Agar Fapb madaniyati odamga keragidan ortiq erk berib, jamiyat, oila oldidagi burchini uning soyasida qoldirsa, sharq jumladan o'zbek madaniyati insonlarning jamiyat, oila, farzandlar oldidagi katta burchini anglatish doirasida erk beradi. Mana shu madaniyat sarchashmalaridan baxramand bo'lgan insonlarda halollik kamtarinlik rostgo'ylik saxovatpeshalik insonparvarlik samimiyat, mexmondo'stlik mehnatsevarlik ko'proq yorqinroq gavdalanadi. Bunday odamlar o'z ona tili boyliklarini mukammal egallagan, ayni chog'da yana 3- 4 xorijiy

¹ Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.-T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2007.-275 b

tillarni ham bilgan, o'zga millat, elatlar madaniyati, urf-odatini xurmat qila oladigan ulug' shaxslardir sifatida namoyon bo'ladilar.

Madaniyatli inson, ayniqsa bo'lg'o'si mutaxassis boshqalar bilan muloqotda g'oyat xushmuomala, shirinsuxan, gapga chechan, tashqi qiyofasidan nur-ziyo yog'ilib turadigan dilkash bo'lishi kerak. Bu, hozirgi sivilizatsiya talabidir. Dilozor, qo'pol so'zli, dag'al, tush kalondimog', maqktanchoq odamlardan hamma qochadi, ulardan nafratlanadi. Chunki bunday odamlar madaniyatsiz, axloqsizdir.

Jamiyatimizda demokratiyaga, fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yilayotgani uchun madaniy saviyasi past ba'zi odamlar ham mulozara, baxslarda ishtirok etmoqdalar. Natijada ular jamiyatdagp nuqul nuqson, illatlarga jiddiy e'tiborni qaratib, milliy mustaqillik tufayli qaror topib borayotgan ma'naviyat qadr-qimmatini tushirmoqchi bo'ladilar. Ular kamchiliklarni ochayotganda, tanqid qilayotganda odamlarning izzat-nafslariga tegadilar, muayyan dunyoqarash asosida shakllangan imon-e'tiqodlarini taxqirldaydilar. Konstitusiyada belgilagan xuquq va burchlarni nazar-pisand qilmaydilar.

Har bir ziyoli xuquqiy demokratik davlat, grajdanlik jamiyatini barpo etishning oldingi safida boradigan ma'naviy olami boy bo'lishi uchun hozirgi zamon madaniyatining barcha sarchashmalaridan baxramand bo'lmog'i, chin sivilizatsiyalashgan inson timsoliga aylanmogi darkor.¹

¹ Ibrohim Karimov. Ma'naviyat, falsafa va hayot -T.: "Fan", 2007-yil. 95-100-b

II. BOB. O‘ZBEK ETNOMADANIYATI VA JAHON SIVLIZATSIYASINING AMALIY AHAMIYATLARI

2.1. Etnik madaniyatning funksiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari

Etnosning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda muxim o‘rin olishi bilan etnomadaniy belgilar kengroq ko‘zga tashlanadigan va etnosning xususiyatlarini to‘laroq ifodalaydigan bo‘ladi. Xo‘sh, o‘zbek xalqi etnik madaniyatidagi ushbu o‘ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Etnik madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini moddiy va ma'naviy, ijtimoiy, badiiy-estetik, axloq, xulq-atvor, imo-ishora, maishiy xayot, kabi ko‘rinishlarga ajratib o‘rganish mumkin.

O‘zbek xalqi etnik madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlariga U.X.Qoraboyev xalq donishmandligi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o‘yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush-madaniyati kabi ko‘plab soxalarni kiritadi. Etnik madaniyatni maxsus tadqiq etgan S.A.Arutyunov esa uni insonning ma'naviy va moddiy madaniyatlar sistemasiga ajratib qarashni taklif etadi. Shu bilan birga u ushbu ikki sistemani uyg‘unlashtirib, dialektik bog‘lab keluvchi jismoniy yoki insoniy «vujudiy xatti-harakatlari madaniyati» ham bor deb ko‘rsatadi. Ushbu sistemalar borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish, insonni o‘zini anglash va shakllantirish, iste'mol qilish (oziq-ovqatdan tortib badiiy estetik asarlardan huzur olishgacha), kishilararo aloqalarni va jamiyatdagi yerarxik bog‘liqlikni ta'minlovchi muloqot (kommunikatsiya) - normativ fo‘nksiyalarni bajaradi. Albatta, etnik madaniyatni bunday podsistemalarga va fo‘nksiyalarga klassifikatsiya qilishda ma'lum bir ilmiy-nazariy konsepsiya, maqsadlardan kelib chiqiladi. Bizning fikrimizcha, etnik madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ibtidoiy davrlarda yuzaga kelgan madaniy belgilar bilan cheklash mumkin emas. Har bir ijtimoiy-tarixiy rivojlanish bosqichlari etnik madaniyatlarning podsistemalariga ham, fo‘nksiyalariga ham ta'sir ko‘rsatib, ularda umumiy (umuminsoniy) va

xususiyl, (milliy, etnik) belgilarni yuzaga keltirganki, ularni hisobga olmay, ma'lum bir xalq madaniyati haqida so'z yuritib bo'lmaydi.

Etnik madaniyatga sistemali-fo'unksional yondashish maqsadga muvofiqdir. U ijodiy faoliyat fo'unksiyasi, an'anaviylilik (saqlash) fo'unksiyasi, kommunikativ (muloqot) fo'unksiyasi, integrativ fo'unksiyasi, rekreativ (dam olish, xordiq chiqarish) fo'unksiyasi, ommaviylashuv fo'unksiyasi, ijtimoiy guruhlanish (differensiyalashish) fo'unksiyalariga bo'linadi. Ijodiy faoliyat fo'unksiyasi etnik madaniyatni xalq, millat ijodiy mehnat, izlanishlar va tajriba almashishlar jarayonida yaratadi, degan fo'ndamental ahamiyatga ega yondashuvga tayanadi. Ijodiy faoliyat, umuman faoliyat - insonning mavjudlik usulidir.

«Inson xayot tarzining madaniyat tushunchasidagi belgisi uning faoliyatidir.» (Karmin A.S.) To'g'ri, barcha faoliyatlar ham madaniyatni yaratavermaydi, balki, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, ongli, sun'iy tarzda yaratilgan narsa, xodisa (artefakt)lar madaniyatdir. Demak, artefaktlar madaniyatlarning asosiy belgisidir. O'zbek xalqi etnik madaniyatida bu fo'unksiya mavjud ijtimoiy-madaniy boyliklarni o'zlashtirishdan tortib, to yangi bir ijod namunasini yaratishgacha bo'lgan izlanishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqi etnik madaniyatiga xos ilk naqsh asarlari eramizdan avvalgi I-ming yillarga oid arxeologik topilmalardayoq uchraydi. Biroq, bu o'ta sodda chizmalarga, har bir avlod o'z ulushini qo'shib, uni tarixiy diniy tasavvurlar bilan boyitib, hozirgi murakkab san'at darajasiga ko'targan. Shu tarifa ijodiy faoliyat ta'sirida xalq amaliy san'ati oddiy ko'rinishdan yirik murakkab janrga o'sib chiqqan. ba'zan, ijodiy faoliyatda izlanishlar to'xtaganini kuzatamiz. Masalan, arablar istilosi va mug'ul-tatarlar bosqini avj olgan davrlarda turg'unlik, ba'zan esa orqaga qaytish hollari kuzatiladi. O'lkada tinchlik qaror topishi bilan xalqimiz madaniy boyliklarni yaratishda davom etadi. Ijod, qo'shiq san'ati kabi janrlarda esa hatto chet elliklar bosqini paytida ham xalqimiz ijodiy izlanishlardan to'xtamagan. Demak, o'zbek xalqi etnik madaniyatiga xos bosh xususiyat uning ijodiy faoliyat va izlanishlardan hech qachon to'xtamaganida, xalqimizni madaniy boyliklar yaratishga uzluksiz intilib

kelganidadir. An'anaviylik fo'nsiyasi ajdodlarimiz yaratgan madaniy boyliklarni asrash, ularni yot elementlarning buzg'unchi ta'siridan, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning yimirishidan ximoya qilishga qaratilgan. Uni L.G.Ionin «muzey» fo'nsiyasi sifatida qaraydi¹.

An'anaviylik insonga xos filogenetik va ontogenetik xodisadir. U ajdodlar yaratgan boyliklarni, muxim xulq-atvor, axloq normalarini, turmush tarzini avlodlardan avlodlarga uzatish orqali etnik madaniyatni asrash vazifasini bajaradi. Ba'zan, an'analarga qoloqlik belgisi, taraqqiyotga, to'siq sifatida qarash ham uchraydi. Shunday munosabat sovet totalitar tuzumi davrida o'zbek xalqi etnik madaniyatiga nisbatan olib borilgan. Masalan, uch marta yozuv o'zgartirildi, diniy qadriyatlarga qarshi «urush» e'lon qilindi. Biroq sovetlar davrida xalqimiz madaniy-ijodiy faoliyatdan, ma'naviy boyliklar yaratishdan to'xtamadi, o'z etnik madaniyatini asrab-avayladi. An'anaviylik etnik madaniyatni iloji boricha buzmay, ijtimoiy-tarixiy bosqichga xos ko'rinishda saqlashni taqozo etadi. Kommunikativ (muloqot) fo'nsiyasi etnik madaniyatning insonlararo muloqot vositasiga aylanishini ifoda etadi. Etnik madaniyatning ayrim ko'rinishlari (masalan, amaliy san'at, dostonchilik, va b.)ni aloxida olingan shaxs yaratishi mumkin, lekin ularning tarqalishi, xalq ijodiga aylanishi muxitga, ko'pchilikka bog'liqdir.

Shuning uchun kommunikatsiya (muloqot) etnik madaniyatning asosiy belgilaridan biridir. Madaniyatni yaratish jarayonida kishilar o'zaro muloqotga kirishishadi, muloqot esa kishilarning ma'naviy-ruxiy olamini, intellektual sifatlarini bilishga yordam beradi. Muloqot o'z moxiyatiga va negiziga ko'ra kishining informatsiya almashish, u yoki bu yangiliklarni eshitish, o'z yuragida yig'ilgan xis-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashishga qaratilgan ichki ma'naviy extiyojining ifodasi hisoblanadi. Unda kishi yo ijod predmetiga, yoki ijod jarayonining boshqa sub'yektlari bilan muloqotda bo'ladi. U.X.,Qoraboyev muloqotning askiya xalq og'zaki ijodidagi o'rnini tadqiq etib quyidagilarni yozadi: «Askiya bir necha kishilar o'rtasida o'tkaziladigan og'zaki xazil-

¹ <http://www.lawbook.ru>

mutoyibaga ko‘rilgan xalq o‘yinidir. Uni «so‘z o‘yini», «kulgi chiqarish san‘ati», «badiiy suz baxeii» deb ham atashadi. Askiyadagi asosiy usul so‘z tagida so‘z-ya‘ni «kosa, kosani ostida nimkosa» tarzida xazil qilishdir. U odatda yuqori so‘z san‘ati hisoblanib, ko‘zlangan maqsad auditoriyada kulgi uyg‘otadi. Askiyachining san‘ati badiiy so‘z va ifoda usullaridan, xazul-xuzul, masxara va pichinglardan unumli foydalanishida, shu tariqa boshqa askiyabozlar va auditoriya bilan bevosita muloqot o‘rnatishuvda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun askiya xalq og‘zaki ijodining an‘anaviy ko‘rinishi sifatida jonli muloqot orqali yashab keladi».¹ Agar, ilgari askiya oilaviy-maishiy davralarda yashab kelgan bo‘lsa, hozir u xalq etnik madaniyatining ta’sirchan turi sifatida madaniyat o‘choqlari uyushtiradigan ommaviy-badiiy tadbirlarga aylangan. Muloqotda insonning o‘z ruxiyatida yig‘ilgan «salbiy ma'lumotlar»dan xalos bo‘lishga intilishi ham aks etadi. Erkin, tashqi tazyiqsiz, ichki ma'naviy extiyoji bilan amalga oshiriladigan xalq ijodi turlari kishini ana shunday salbiy xususiyatga ega ta'sirdan xalos bo‘lishiga yordam beradi. «Men» o‘zining ijodiy xislatlarini boshqa «men» yoki sub'yektlar bilan birgalikda namoyon qiladi, ushbu muloqot jarayonida o‘zida zarur ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Etnik madaniyat kishilar va xalqlarni, ijtimoiy institutlar va ijod qilishga moyil kuchlarni birlashtiradi. Bu uning integrativ fo‘nksiyasidir. O‘zbek xalqi etnik madaniyatida integrativ belgilar mudom mavjud bo‘lgan. Ular o‘zbek xalqining O‘rta Osiyo xalqlari bilan bir jug‘rofiy xududda yashagani, xo‘jalik-madaniy tiplarining va ijtimoiy-tarixiy xayotining aynanligi, bir yirik etnos-turk qavmiga mansubligi, diniy-e’tiqodlarining birligi kabilar bilan bog‘lovchidir.

Bundan tashqari, O‘rta Osiyoda turli xalqlar (fors, arab, mo‘g‘ul, ro‘s, grek-makedoniyaliklar) ijtimoiy-madaniy qadriyatlarining sintezlashib kelishini ham unutib bo‘lmaydi. Ushbu belgilar nafaqat o‘zbeklarni, shu bilan birga O‘rta Osiyodagi barcha xalqlarni o‘z atrofida birlashtirib kelgan. Ushbu madaniyatdagi Sharq (Xitoy, Mongoliya, Hindiston, Old Osiyo, Turkiya, arab

¹ Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O‘qituvchi, 1996.-192 b.

davlatlari, Kavkaz) xalqlari madaniyatiga yaqin belgilarning mavjudligi bizni ushbu xalqlar tarixi, madaniyati, milliy urf-odatlarini to'g'ri tushunishga, etnogenez nuqtai nazaridan esa bir xalq, qavm ekanimizni anglashga undaydi. Bu esa ushbu xalqlarni etnomadaniy qadriyatlar atrofida integratsiyaga kirishib yashashga da'vat etadi.

Etnik madaniyat rekreativ fo'nsiyani ham bajaradi. Dam olish va xordiq chiqarishda xar bir etnik guruhlarining, millatning o'z vaqtini o'tkazishga, psixofiziologik xolatini tiklashga qaratilgan an'analari aks etadi. Dam olish va xordiq chiqarish shaxsning o'z ixtiyoridagi ishi bo'lsada, u jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan tashqarida kechmaydi. Dam olish va xordiq chiqarish shaxs va ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari bilan dialektik bog'liqdir. Shuning uchun uni maqsadli tashkil etish uchun jamiyat va davlat maxsus ijtimoiy-madaniy texnologiya (vositalar, usullar, tashkiliy mexanizmlar majmuasi) yaratgan. Bozor munosabatlari sharoitida esa bunday texnologiya vazifasini ijara, xo'jalik hisobi kabi iqtisodiy boshqarish usullari bajaradi. Aynan bozor munosabatlari etnik madaniyatni xalq, kishilarning ijtimoiy-madaniy va milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan erkin, tashqi tazyiqsiz rivojlanishiga imkon beradi. Ommaviylashuv fo'nsiyasi etnik madaniyatning tashki tashkiliy belgisi sifatida keladi, biroq u etnik madaniyatning milliy xususiyatlari va ma'naviy qiziqishlari yaqin kishilarning ruxiy birligi, bir-biriga yaqinlashishi tufayli paydo bo'ladi. Ommaviylik etnik madaniyatning ochiq sistemaligi, ko'pchilikka tushunarli ekanligi, egallash usullarining osonligi bilan xarakterlanadi. Ushbu belgisi yo'q madaniyat xalq, omma orasida tarqalmaydi.

Ijtimoiy guruhlanish fo'nsiyasi deganda biz jamiyatdagi sotsial guruhlarining o'ziga xos etnik madaniyat yaratishini tushunamiz. Masalan, u bilan sanokqli kishilar, ayrim guruhlargina shug'ullanadi. O'zining etnik madaniyatiga dexqonlar, ziyolilar, bolalar, shu jumladan, erkaklar va ayollar ham ega. O'zbek xalqi etnik madaniyatidagi umuminsoniylik va milliylik bir-biriga dialektik bog'liq va uzoq ijtimoiy- tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan

subetnik-etnik-superetnik sistemalarning o'zaro aloqalari va fo'unksional belgilarida namoyon bo'ladi.

Subetnik madaniyatga jamiyat ichidagi elatlar, xududiy milliy guruhlar, o'zining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan uyushmalarga (jamiyat podsistemalari) taalluqli qadriyatlar, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy boyliklar kabilar kiradi. Subetnik madaniyat cheklangan doiradagi etnik uyushmalarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ifodalab kelgani uchun ular etnik madaniyatni rang-baranglashtirib, ma'lum bir ichki qonunlarga muvofiq davr talablariga moslashtirib turadi. Masalan, o'zbek etnik madaniyati ichidagi submadaniyatga Xorazmliklarning o'ziga xos til va muomala madaniyati, Namanganliklarning sertakallufligi va mexmondo'stligi, Toshkentliklardagi pragmatizm va savdogarlikka moyilliklar misol bo'lishi mumkin. Xuddi shuningdek, submadaniyatga ayrim guruhlar (yoshlar), kasb egalari (yozuvchilar, musavvirlar va b.), aholi qatlamlari (keksa kishilar, ayollar va b.), tadbirkorlar va ishbilarmonlar, sportchilarning o'ziga xos xulq atvori, fikrlashi, turmush tarzi, qiziqishlari ham kiradi. Albatta, submadaniyat etnik madaniyatga qarshi turmaydi, balki o'ziga xos xususiyatlari bilan etnik madaniyatda ma'lum bir podsistema ko'rinishida keladi.

Submadaniyat respublikamizda yashayotgan turli millatlarga ham xosdir. Hozirgi kunda O'zbekistonda 1 million 237 ming Tojik, 977 ming Qozoq, 227 ming Qirg'iz va 152 ming Turkman millati vakillari yashaydi. Ular titul millat - o'zbeklar etnik madaniyatiga nisbatan submadaniyat sub'yektlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, ushbu millatlar etnik madaniyati ichida ham submadaniyatlar bo'lishi tabiiy holdir¹. Ammo, ularning barchasini o'zbek xalqi etnik madaniyati o'z atrofida birlashtirib, umum ijtimoiy manfaatlarini ifoda etuvchi O'zbekistan Respublikasi xalqlari madaniyatini shakllantirishga yo'naltirib turadi. Shu tariqa submadaniyatlar bilan titul millatning etnik madaniyati uyg'unlashib umuminsoniy harakter kasb etadi.

¹ <http://www.lawbook.ru>

Milliylik va umuminsoniylik «milliy differensiatsiya va integratsiya», madaniy-informatsion va iqtisodiy aloqalar, xalqaro qadriyatlar va xuquq normalari, fan va texnika taraqqiyoti, global muammolar ta'sirida ham etnik madaniyatning barqaror xususiyatlariga aylanadi. Masalan, milliy differensiatsiya «etnik o'z-o'zini anglashning o'sishi, milliy xayotning uyg'onishi» natijasi bo'lsa, integratsiya esa ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyot sharti sifatida regional va umumplanetar ahamiyat kasb etmoqda. Etnik madaniyatda umuminsoniy belgilarning shakllanishi va qaror topishiga supermadaniyat ta'sir ko'rsatadi. Supermadaniyat deganda zamonaviy sivilizatsiya yaratayotgan aeroportlar, temir yo'llar, yuqori qavatli binolar, so'n'iy o'gitlar va so'n'iy yaratilayotgan narsalar, jonivorlar, xalqaro universitetlar, jahon tillari, fazoviy aloqalar sistemasi, xullas, umumplanetar voqelikka da'vogar boyliklar nazarda tutiladi. Supermadaniyat mintaqalar va xalqlar o'rtasidagi madaniy-informatsion hamda integratsion aloqalarning yoyilishini u yoki bu boyliklarning umuminsoniy qadriyatlarga aylanishini tezlashtiradi. Aynan supermadaniyat ta'sirida bir tomondan, etnik madaniyatlarning o'zaro aloqalari kengayayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalq madaniyatida yot elementlarning paydo bo'layotgani, natijada kishilardagi ijodiy xislatlarni o'stirish o'rniga boqimandalik, konformizm kayfiyatlarining shakllanayotgani ko'zga tashlanadi. Ammo, o'zbek xalqi etnik madaniyatida o'zining tarixiy-madaniy paradigmalarini saqlashga intilish kuchli. Bizning fikrimizcha, xalqimiz madaniyatidagi ushbu etnik xususiyatlarni yanada mustaxkamlash, yosh avlod qalbiga ularni singdirish haqida mudom qayg'urish zarur. Ushbu tadqiqot ham mazkur vazifani bajarishga qaratilgandir.

2.2 Milliy istiqlol va o'zbek etnomadaniyatini rivojlantirish masalalari

Mustaqil rivojlanish ijtimoiy voqelikka aylangan hozirgi kunda o'zbek xalqi etnik madaniyatining taraqqiyot yo'llarini aniqlab olish, ilmiy va amaliy kuchlarni uyg'unlashtirovchi dasturlar ishlab chiqish talab etiladi. Madaniyatni rivojlantirish va prognozlash muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bu soxada aniq bir metodologiya xali ishlab chiqilmaganini, madaniy jarayonlarni o'lchash, rivojlanishning samarali yo'llarini topish murakkab vazifa ekanligini yakdillik bilan qayd etadilar. Bundan tashqari, madaniyatni ma'lum bir rejalar asosida boshqarish va rivojlantirish mumkin, degan fikr sovetlar davrida aksimo sifatida qaraldiki, bu o'sha paytda hukum surgan markazlashtirilgan tarzda totalitar boshqarishning natijasi edi. Madaniyatning tashqi tazyiqsiz, ijodiy erkin faoliyat sifatida rivojlanish qonuni bilan jamiyatni kommunistik monoideologiya maqsadiga muvofiq totalitar boshqarish o'rtasidagi ziddiyat madaniy hayotga, xalqimiz etnik madaniyatiga salbiy ta'sir qilmay qolmadi.

Mustaqillik xalq an'anaviy madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratganidan kelib chiqib, U.X. Qoraboyev uni, xalq an'anaviy madaniyatining joylardagi ko'rinishlarini avaylab-asrash, xalq talantlarini izlab topish va ularga zarur uslubiy yordamlar ko'rsatish, madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ommaviy tadbirlar o'tkazib turish, ijodiy uyushmalar tuzish orqali rivojlantirish mumkin deb ko'rsatadi. Shubxasiz, xalq etnik madaniyatidagi ijobiy jihatlarni avaylab-asrash uchun ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanish zarur.

Xalq ijodi va talanti azaldan erkin ijodiy faoliyat, kishining olamni idrok etishga yo'naltirilgan badiiy-estetik qiziqishlari sifatida rivojlanib kelgan. Ixtiyoriylik, insonning o'z ro'hiy-ma'naviy kechinmalarini ifoda etishga bo'lgan extiyoji etnomadaniy jarayonlarni rang-baranglashtirgan, turli madaniyatlar o'rtasidagi alokqalarga ijtimoiy-zaruriy yo'l bergan. Millat, xalq o'zligini anglagan sayin ushbu xususiyatlarni, etnomadaniy omillarni umumlashtirishga,

asrashga, o'z mavjudligining ijtimoiy-tarixiy qonuni, sharti, determinanta sifatida ulardan foydalanishga intilgan.

Kommunistik tuzum xalq madaniyati va ijodiga siyosiy ideologik tarbiya vositasi sifatida yondashdi, unda milliy, xududiy, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, Mustaqil tarzda xalqaro madaniy aloqalar uo'rnatish imkoniyatlari borligini hisobga olmadi. O'zbekistan Respublikasining bozor munosabatlariga o'tishi xalq madaniyati va ijodiga xo'jalik hisoblarini, madaniyat marketingini olib kirdi. Natijada Respublikamizda davlat va jamoat tashkilotlari (masalan, kasaba uyushmalari)ga qarashli madaniyat o'choqlari va xalq ijodi bilan shug'ullanuvchi ijodiy uyushmalardan tashqari yarim xo'jalik, to'la xo'jalik usulida ishlovchi va xususiy madaniyat maskanlari ham yuzaga keldi. Masalan, Toshkent shaxridagi xususiy golf-klub, kafe-klub va kompyuter-klublar misol bo'lishi mumkin. (Xalq etnik madaniyatiga, an'anaviy ijod, urf-odatlar, an'analar, marosimlar va ommaviy bayramlarga taalluqli bunday maskanlar uchramaydi). Ularning asosan yirik shaxarlarda va shunday madaniy xizmat turlariga ehtiyoj yuqori joylarda tashkil etilishi kuzatiladi. Lekin bu kishilarning etnik madaniyatga qiziqishi yo'q, degan fikrni anglatmaydi. Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, Mustaqillik yillarida xalq an'anaviy ijodi va san'atiga bo'lgan qiziqishlar keskin oshgan. Kishilarning xalq an'anaviy ijod turlariga bo'lgan qiziqishi shaxarda ham, qishloqda ham yuqori, shuning uchun ular etnomadaniy qadriyatlarni kengroq targ'ib qilishga undaydi. Bir tomondan, kishilarimizda xalq etnik madaniyatiga qiziqish katta, lekin ularni targ'ib qiluvchi, uyushtiruvchi ijtimoiy-madaniy institutlar Yevropa ommaviy madaniyati an'analariga tayanishga moyil¹.

«Ommaviy madaniyat» o'tgan asrning o'rtalariga kelib jahonda, ayniqsa, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti yuksalayotgan davlatlarda keng tarqaldi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy integratsiyaning kengayishi «ommaviy madaniyat»ni umumplanetar xodisaga aylantirdi. Bu ta'sirdan O'zbekistan ham chekkada qolmadi. Biznes,

¹ www.ziynet.uz Kutubxonasi

foйда ko‘rish madaniyatga tadbiq etilganidan boshlab, madaniyat ham, iqtisod kabi korrupsiya maydoniga aylandi. «Gollivud» kabi «ommaviy madaniyat» maxsulotlaridan katta foyda olayotgan guruhlar Yevropa davlatlarida ham ko‘p. Pekin talantiga yarasha pul topish ularda ayb hisoblanmaydi. O‘zbekistonda shakllanayotgan madaniyat marketingi va ijodiy-madaniy soxaga bozor munosabatlarini, iqtisodiy boshqarish usullarini joriy etilayotgani bizda ham badavlat kishilarni paydo kqiladi. Demak, «ommaviy madaniyat»dagi pul ishlab topish prinsipi insonning o‘z mexnatiga yarasha xaq olish huquqidir. Biroq gan «ommaviy madaniyat» taqdim etayotgan asarlarning badiiy-estetik qimmatini ustida ketishi mumkin. «Ommaviy madaniyat»ning asosiy vositalari-radio, televideniye, matbuotsiz ijtimoiy-madaniy hayotni, umuman taraqqiyotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. «Urush va tinchlik» romanini bo‘sh vaqtida o‘qishi uchun kishiga qamida bir oy kerak, televideniya orqali esa u roman bilan 2-2,5 soat ichida tanishishi mumkin. Bu urshda inson yon-atrofdagi informatsiyalarning 95 %ini ko‘zi bilan olishini unutmaslik zarur¹.

«Ommaviy madaniyat» keng ommaga, oila va ish tashvishlari bilan mudom band kishiga mo‘ljallangan. Shuning uchun unga nisbatan eskeypizm (og‘ir mehnat va turmush tashvishlaridan vaqtincha xalos bo‘lish) xos. «Ommaviy madaniyat» badiiy asarlardagi sentimental tomonni bo‘rttirib, kuchaytirib tomoshabinni o‘ziga jalb etishga intiladi. Bu ijodkorlarning usuli va xuquqidir. Bizning fikrimizcha, badiiy saviyasi yuqori bo‘lmasa-da, har bir ijodkor o‘z asarini sotish, namoyish qilish xuquqiga ega. Demak, «ommaviy madaniyat»ga oid asarlarning ijodkorlari ham o‘z maxsulotlarini tarqatish, ulardan foyda olish, tomoshabinlar esa, shu jumladan, xalqimiz ham, ularni ko‘rish, istamasa ko‘rmaslik va xarid qilib olmaslik xuquqiga ega. Tomoshabinlarda nimani ko‘rish, o‘qish yoki qaysi ijod turi bilan shug‘ullanish mumkinligini erkin, o‘z ma’naviy extiyojlari va qiziqishlariga qarab tanlash imkoniyatlari bo‘lishi lozim. «Ommaviy madaniyat» asarlarini mutloq rad etish, ba’zi tadqiqotchilar va jurnalistlar taklif etayotganidek namoyish qilishni taqiqlash demokratik

¹ Murod Malik. O‘zbek qadriyatlarini. 1-kitob.-T.: Cho‘lpon, 1995.-271 b.

tamoyillarga, madaniyatning ichki rivojlanish qonunlariga ziddir. Ammo, bu badiiy-estetik saviyasi past asarlarni ochiq tanqid qilishni ham rad etmaydi.

O'zbek etnik madaniyatini rivojlantirish xalqimizning nafaqat tarixiy-madaniy qadriyatlarni sevishi, ulardan xabardor bo'lishi, xuddi shuningdek, ularning etnomadaniy hayotda faol sub'yektlar sifatida qatnashishini ta'minlaydigan ijtimoiy omillarga ham bog'lashdir. Ushbu omillarga kishilarning ma'lumoti, bo'sh vaqti va undan foydalanish ko'nikmalari, madaniy qiziqishlari, ijtimoiy-madaniy institutlarga qatnashi, uy-joy sharoiti kabilar kiradi.

Bo'sh vaqt va undan foydalanish ijtimoiy hayotga jalb etishning eng muxim yo'nalishlaridan biridir. Vaqtga munosabat - hayotga munosabat, kishining o'z burchiga, hayotiy maqsadlariga munosabatidir. «Vaqtimizning bir qismini tortib oladilar, deb yozgan edi bundan ikki ming yil oldin Seneka,- bir qismini o'g'iraydilar, bir qismi esa bexuda o'tadi. Biroq hammasidan uyatlisi, uni o'zimizning befarqligimiz tufayli yo'qolganidir.»¹

Vaqtning ijtimoiy ahamiyati oshib borayotgan va shaxsning faol hayot tarzi uchun imkoniyatlar kengaygan hozirgi paytda vaqtning qadriga yetmaslik mumkin emas. Chunki, vaqt borliqni, o'z navbatida insonning ham o'zgarishini belgilovchi me'yordir. Shuning uchun ham madaniyatshunolar bo'sh vaqtni inson ijodiy faoliyatidagi jarayonlar bilan dialektik bog'liqlikda o'rganadi va insondagi ijodiy kuchlarning ro'yobga chiqishini bo'sh vaqtning hajmi va undan foydalanish ko'nikmalari bilan bog'laydi. Xalqimizning kuniga necha soat bo'sh vaqti borligini aytish qiyin, chunki bu borada rasmiy ham, ilmiy ham kuzatish o'tkazilmagan. Xalqimiz tafakko'ri va etnopsixologiyasida o'z xalqiga xos an'analarni saqlab qolish, xatto turmush qiyinchiliklariga chidab bo'lsa-da, ajdodlarimiz tarixiy-madaniy merosini asrash, uni kelgo'si avlodlarga yitkazish xususiyati mavjud. O'zbek xalqining ushbu etnomadaniy belgilaridan milliy istiqlol nuqtai nazaridan ratsional foydalanish, ularni xalq ijodi va san'atini rivojlantirishga yo'naltirish, eng muximi ijtimoiy-madaniy hayotimizda ro'y

¹ Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. -T.: Sharq. 2002. -85-b

berayotgan novatsion va innovatsion o'zgarishlarga, jamiyatii modernizatsiyalash jarayonlariga xalqimizni kengroq va dadil jalb etish zarur. Etnik madaniyatning mavjudlik sharti, uni ijtimoiy-madaniy hayotda tarixiy-madaniy paradigma sifatida barqaror bo'lishi xalqimizning ma'naviy-madaniy qiziqishlariga bevosita bog'liqdir. Ushbu qiziqishlar qanchalik rang-barang va zamonaviy extiyojlarga, talablarga javob bersa, bir tomondan, an'anaviy madaniyat (etnik madaniyat)ni avaylab asrash uchun muxim ijodiy muxit yaratilgan, ikkinchi tomondan, etnik madaniyatni modernizatsiyalash orqali uni ijtimoiy hayotning real (ijtimoiy-madaniy) muammolarini xal etish vositasi topilgan bo'ladi.

Etnik madaniyat, xalq an'anaviy ijodi hozir zamonaviy san'at bilan uyg'unlashib, modernizatsiyalashib, o'z navbatida xalq ijodi ham zamonaviy san'atni xalqqa, ko'pchilikka yaqin, tushunarli qilish orqali rivojlanish yo'lidan bormoqda. Shuning uchun etnik madaniyatni faqat uzoq o'tmishga taalluqli, o'zgarmaydigan san'at, ijod turlari, marosimlar, an'analar, bayram va tomoshalar deb qaramaslik, balki, uni xalq ijtimoiy hayoti bilan mudom dialektik bog'liq u bilan birga transformatsiyaga uchrab, kishilarning ma'naviy-madaniy qiziqishlari va innovatsiyalar ta'sirida modernizatsiyalashib keladigan voqelik sifatida qarash kerak. Lekin, etnik madaniyatdagi o'zak, ya'ni o'zbek xalqiga xoslik mudom saqlanib qoladi. Respublikamiz madaniyatshunoslari madaniyatda ikki, ya'ni, bir tomondan, o'zgarmaydigan ichki (o'zak qatlam) va ikkinchi tomondan, tashqi ta'sirlar, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish, ob'yektiv omillar ta'sirida o'zgarib turadigan ustki qatlam mavjud deganida yuqoridagi jarayonlarni nazarda tutgan.

Ijtimoiy-madaniy infrastrukturani yangi talablar va ko'rsatkichlar asosida qayta tashkil etmay, nodavlat madaniyat o'choqlarini ma'naviy hayotimizning tarkibiy qismiga aylantirish qiyin. Xalqimiz madaniy-maishiy xizmat soxasida xususiy oshxona, kafe, kompyuterxonalar va videoxonalar ochmoqda. Ushbu izlanishlarni xalq etnik madaniyatiga ham tadbik etish maksadga muvofivdir. Birok, biz xalq etnik madaniyatini o'rganish va targ'ib qilish mutloq pullik madaniy xizmat-kommersiya orqali rivojlanadi, degan fikrni bildirishdan

uzoqmiz. Xalq ijodi va san'atida azaldan ixtiyoriylik hamda pullik xizmat ko'rsatish yonma-yon kelgan, ularning qachon pullik va qachon ixtiyoriy bo'lishini tomonlar o'zaro kelishgan tarzda xalq etgan. Ushbu etnomadaniy an'anaga amal qilish, bizning fikrimizcha, etnik madaniyatning o'z ichki qonunlariga muvofiq rivojlanishini ta'minlaydi. Etnik madaniyatning rivojlanishini oilaviy yoki maxalla doirasi bilan cheklab, chegaralab bo'lmaydi, aks holda etnik madaniyat oilaviy-maishiy marosimlardangina iborat bo'lib qoladi. U butun jamiyatni, xalqni, millatni ijodiy- madaniy jarayonlar sub'yektiga aylanishini hamda maxsus ijtimoiy-madaniy institutlar (ma'naviyat va madaniyat saroylari, xalq ijodiyoti uylari, teatrlar va b.)ning faol ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot ishlarini talab etad¹i.

Etnomadaniyat va zamonaviy rekreativ an'analar.

Rekreativ sayillarda dam olish va xordiq chiqarish asosiy fo'unksiyadir. Kalendar bayramlari va marosimlarida dam olish va hordiq chiqarish insonning tabiat bilan munosabatga kirishishidan keyin keladi. Ularda tabiatni o'z istaklariga bo'ysundirish, undan biror narsa so'rash, tilash, xullas, uni o'z saxovatini ayamaslikka, qilgan mehnatiga yarasha taqdirlashga undash yotadi. Ushbu kompensatsiya fuo'unksiyasi kalendar bayramlari va marosimlarida yitakchilik qiladi.

Rekreativ sayillarda esa kishining og'ir mehnatdan keyingi psixo fiziologik, faollikni nafaollik, jismoniy mehnatni aqliy mehnat, aqliy mehnatni xayol, orzu, tilaklar yoki xazil- o'yinlar bilan almashtirish extiyojlaridan kelib chiqadi. Rekreativ sayillarga «Yalpiz sayli», «Gul sayli», «Tog' sayli», «Dala sayli» kabi xalqimiz etnik madaniyatidan joy olgan ommaviy-madaniy tadbirlar kiradi. Yalpiz sayli. Bahordan darak beruvchi yalpiz soy bo'ylarida va ariq lablarida bo'y cho'za boshlashi bilanoq yosh qizaloqlar, bo'y yitgan qizlar va ayollar yalpiz sayliga oshiqadilar. Yalpiz sayliga yo dugonalar yig'ilishib, yo oilaviy bo'lib chiqiladi. Ayollar yalpizlardan terib, omonlik-somonlik qilishadi,

¹ Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. -T.: Sharq. 2002

sof havoda davra qurib o'tirib, o'zlari bilan olib kelgan turli yeguliklardan tanovul qiladi, qo'shiq aytib, raqsga tushadi, tabiat qo'ynida miriqib dam oladi.

Gul sayli. Gul - yaxshilik, himmat, go'zallik ramzidir. Gulni hurmat va ehtirom ramzi sifatida yoru-do'stlarga taqdim etish, o'zaro bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini gul bilan izhor qilish an'anasi kishilarni ezgo' niyat, mehr-oqibat, shafqat va diyonat ro'xida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham xalqimiz etnik madaniyatida gul sayllari «Boychechak sayli», «Binafsha sayli», «Chuchmomo sayli», «Qizil gul sayli», «Lola sayli» keng o'rin olgan. Bu sayllarning asosiy sub'yektlari - ayollar va qizlardir. Xorazm va Buxoroda «Qizil gul sayli», Farg'ona vodiysi va Toshkent atroflarida «Lola sayli», tog'li Denov tumanlarida «Sumbula» sayli, «Boychechak» sayli uyushtirilgan. Lola sayli qadimda «Guli surx» («Qizil gul») deb atalgan¹.

U ijtimoiy moxiyati va mazmuniga ko'ra, kishilarning dam olish, ko'ngil ochish, hordiq chiqarishiga mo'ljallangan marosimdir. Lola saylida nafaqat lola, shu bilan birga chuchmomolar, qoqigullar, qizgaldoqlar terish, ularni bir-birlaridan ajratish, boshqalarga hadya etish an'ana bo'lgan. Qizlar va yosh qizaloqlar to'planib bog'larda gullar terishgan, sochlariga tolbargak to'qishgan. Tolbargakni sochlariga taqib, o'yin-kulgu qilishgan. Bahorlashib kelish. Erta bahorda shahar qizlarini qishloqlardagi qarindoshlari, dugonalari «bahorlashib ketinglar» deb, o'z qishloqlariga mehmonga taklif qilishgan. Qish bo'yi zerikkan, bahorni sog'ingan qizlar aravalarda qishloqqa yo'l olishgan, yo'l bo'yi lapar va qo'shiqlar aytib, xursandchilik qilib borishgan.

Qishloqda ularni xar kech bir xonadon soxibasi mehmonga chaqirgan. Qizlar dutor, doyra chalib, qo'shiq aytib, raqsga tushishgan, she'rxonlik, g'azalxonlik qilishgan. Mehmon qizlar qishloqda bir necha kun hordiq chiqarishgan, qishloqning so'lim, joylarida sayr qilishgan. Shu bilan birgalikda shaharlik qizlar qishloq odamlari turmush-tarzi bilan yaqindan tanishishgan, qishloq xotin-qizlari bilan fikr almashishgan. Dugonalarni bir-birlarinikiga

¹ Sarimsoqov B.O'zbek marasim folklori.-T.:1986.65-b

mehmonga borishlari bir yoqlama bo'lmay, qishloq qizlarining ham shaharlik dugonalarinikiga mehmonga borish an'analari bo'lgan. Dugonalar o'rtasidagi bordi-keldining ishtirokchilari faqat turmush qurmagan yosh qizlar bo'lmagan, ularga hamrox qilib ba'zan yoshi ulug'roq ayollardan birortasi yuborilgan. Qishloq qizlari ham o'z navbatida shaharda yayrab dam olgan, 60 ta shahar hayoti bilan tanishgan.

Xalqimiz etnik madaniyatiga xos ushbu mehmonnavozlikning e'tiborga loyiq tomoni shundaki, mehmonga chaqiruvchilar faqat boy xonadon soxiblari bo'lmay, chor-nochor kun ko'rayotgan xonadon soxiblari ham bu an'anadan chetda qolmagan. Dugonalararo mehmonga boradigan qizlar asosan bo'y yitgan qizlar bo'lganligi, balki, ular keyingi bahorgacha turmushga uzatilib ketishi mumkinligi va hech qachon dugonalari davrasida qizlik davridagidek yayrab, o'ynab kulolmasligi uchun ham ota-onalar qo'llaridan kelganicha bu an'anani o'tkazishga harakat qilgan.

Bu an'ana orqali shahar va qishloq qizlari bir-birlaridan pazandalik, to'qish va tikish sirlarini, uy tutishni, o'zaro muomala madaniyatini, mehmon kutish odobini o'rgangan. Bir-birlari bilan fikr almashib, keksa yoshdagi ayollardan turmush saboqlari to'g'risidagi hikoya va rivoyatlarni tinglab, o'z dunyoqarashini oshirgan. Tog' sayliga:

- a) bahorda tog' lolasi ochilganida;
- b) yozning jazirama kunlarida havo almashtirish niyatida;
- v) kuz faslida «do'lana sayli»ga;
- g) qish faslida «qor sayli»ga chiqishgan.

«Tog' sayli»ga odatda oilaviy yoki tengdoshlar yig'ilishib chiqish an'ana bo'lgan. YOshlar tog' etagida o'yin-kulgu qilishgan, o'z kuchiga ishonganlar tog' cho'qqisiga ko'tarilgan. Ular tog' cho'qqisida turib dillaridagi niyatlarini aytgan. O'zlari bilan olib chiqqan idishlarda tog' cho'qqisidan pastda qolganlarga qor olib tushgan.

«Tog' sayli» birinchidan, qishiga zarur ob-havoda bo'lish, muxitni o'zgartirish imkonini beradi. Ikkinchidan, kishi uy-ro'zg'or, kundalik

tashvishlarini unutib, go'zal tabiat qo'ynida dam oladi. Uchinchidan, kishi o'z muxiti tashvishlari bilan o'ralashib qolmay, balki tog'li xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odatlarini bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu esa unda xayot rang-barangligidan baxra olish ko'nikmasini shakllantiradi. Bog' sayli o'zbek etnik madaniyatida juda qadimiy marosimligi bilan ajralib turadi. Ilgari qizaloqlar o'gay bolalar bilan «Quvlashmachoq», «Bekinmachok», «Jami-jami», «Oq terakmi-ko'k terak», «Qizil durracha» kabi ko'plab sog'lomlashtirish, «Tez aytish», «Topishmoq aytish», «Maqol aytish», «Ertak aytish» kabi aqliy o'yinlar o'ynagan. Shu bilan birgalikda faqat qizlarga xos «Xola-xola», «Qo'g'irchoq», «Uy-uy», «Mehmon-mehmon», «Ona-bola» o'yinlari mavjud edi. U Qarboyevning yozishiga ko'ra, «Hammabop o'yinlar bilan bir qatorda o'g'il bolalar va qizlar o'yinlari, keyinchalik esa erkak va ayollar o'yinlari bo'lgan... O'g'il va qiz bolalarga xos instinkt 2-3 yoshdan namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, yosh qizchalarda qo'g'irchoq o'yiniga moyillik sezilsa, o'g'il bolalar esa ish va urush qurollariga o'xshash o'yinchoqlar tanlab o'ynashadi... Qizlar esa: «Durra», «Chori-chanbar», «Tortishmachoq», «Bolkon-bolkon», «Anaqay», «Bakki (Cheqimtosh, Tuppa tosh)», «Qoz-qoz» kabi o'yinlar o'ynashgan.»¹

Qizlarning 9-10 yoshga to'lganlaridan keyin, o'g'il bolalar bilan birga o'ynashi uyat hisoblangan. Qizlar begona kishilarning ko'zi tushmaydigan pana joylarda, bog'larda to'planib, o'yin-kulgu qilishgan, dam olishgan. Misol uchun, qizlardan birining bog'ida to'planishib, mevali daraxtning shoxiga arqon osib, arg'imchoq uchishgan. Odatda arg'imchoqlar mevasiz daraxtning shoxiga osilmagan, sababi qizlar kelajakda farzandsiz bo'lib qolmasin, degan irim bo'lgan. Bir qarashda arzimasi tuyuladigan ushbu irim-sirim ham o'zbek xalqi etnik madaniyatida bolajonlik naqadar muxim o'rin tutganini ko'rsatadi.

¹ Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to'plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O'zbekiston, 1997.-199 b.

«Bog‘ sayli» xalqimiz orasida juda ommalashib ketgan an'analardan biridir. Bugun O‘zbekistonning deyarli barcha shahar va tuman markazlarida istirohat bog‘lari mavjud.

Ularda nafaqat yashil o‘simliklar, gullar va daraxtlar, balki, turli o‘yinxonalar, tamaddixonalar, raqsxonalar, ko‘l, cho‘milish joylari va shunga o‘xshash dam olish o‘choqlari faoliyat ko‘rsatadi.

Dala saylida xalqimizning yerga, ona zaminimizga cheksiz mehr-muhabbati namoyon bo‘ladi. Undan maqsad dala, daryo bo‘ylari, adir va tog‘lar, o‘rmon joylarga borib sayr qilish, tabiat go‘zalligidan, sof havodan, o‘simliklarning, gullarning muattar xidlari, chiroyi, zilol suvlarning salqinidan baxramand bo‘lishdir. Ayollar dala saylida qo‘shiq aytib, dilida yig‘ilgan his-tuyg‘ularini kuy orqali ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Shuning uchun, u kishiga badiiy-estetik zavq beradi, 62 ko‘ngilli dam olishni ta‘minlaydi, hamjihatlikni mustaxkamlaydi. Hozirgi kunda ba‘zi (ko‘proq shaharlik) ayollar o‘z «Gap»ini dala saylida o‘tkazmoqdalarki, bu marosim ishtirokchilariga maroqli dam olish, roxatlanib cho‘milish, gul terish va turli mevalardan baxramand bo‘lish imkonini bermoqda. Tabiat bilan bog‘lik marosimlarda kishilarimizning borlikka, yon-atrofga, dunyoning ontologik asoslariga bo‘lgan munosabatlari o‘z aksini topadi. Ularda ajdodlarimizning farovon turmush kechirishi uchun muxim bo‘lgan tabiat xodisalariga, suv, yir, havoga bevosita murojaat etish kabi mifologik tasavvurlari ham uyg‘unlashib keladi.

Xuddi shuningdek, tabiat bilan bog‘liq marosimlarda kalendar bayramlari va rekreativ belgilarni ham ko‘rish mumkin. Lekin, ulardagi bosh maqsad tabiatni inson iltijolariga muvofiq raxmdil, mehribon, saxiy bo‘lishga undashdir. Tabiat bilan bog‘liq marosimlarga «Sus xotin», «Suvda cho‘milish», «Olov xotin», «Choy momo» kabilarni kiritish mumkin. «Sus xotin» marosimi O‘rta Osiyo xalqlarining suvga bo‘lgan baland e‘tiqodidan kelib chiqqan. «Qadimdan O‘rta Osiyo xalqlari ikki xil yo‘l bilan sug‘oriladigan dexqonchilik bilan shug‘ullanib kelganlar. Bular: so‘n‘iy hamda tabiiy sug‘orishga asoslangan dexqonchilik rayonlaridan iborat. So‘n‘iy sug‘orishga asoslanmagan

territoriyalarda yashovchi aholi bahor oylarida yog'in bo'lmay qurg'oqchilik boshlansa, «Sus xotin», «Sut xotin», «Suv xotin», «Chala xotin» kabi bir necha nomlar bilan yuritilovchi yomg'ir chaqirish marosimlarini o'tkazishgan.»¹

«Sus xotin» zardushtiylik davridan buyon mavjud bo'lgan marosimlardan biri bo'lib, u:

- marosimni tashkil etish;
- marosimni o'tkazish;
- is chiqarish tartibida o'tkazilgan.

Bahorda yomg'ir yog'may, qurg'oqchilik bo'lishi chorvaning qirilib ketishiga, ocharchilikka olib kelgan. Qadimda kishilar qurg'oqchilik sababi gunoxdarning ko'payib ketganligida deb bilishgan. Qishloq oqsoqollari so'zga chechan, tashkilotchi ayollarni chaqirib, ularga «Sus xotin» marosimini tashkil etish haqida ko'rsatma bergan. Marosimni o'tkazish vaqtida o't-o'lan, mayda shox-shabbadan ulkan ayol qiyofasidagi «Sus xotin» gavdasi yasalgan. Uni tiklab qo'yib, atrofidan aylangan holda «Sus xotin» termalari aytilib, marosim ijro etilgan. Har kim chelakda, ko'za-yu kosada, hatto qo'lida ariqdan suv olib, «Sus xotin»ga sepgan... Albatta, bu odat xaftaning xosiyatli kunlari sanalgan yakshanba, payshanba, juma kunlari o'tkazilgan. Marosimda quyidagi qo'shiq kuylangan:

Havolarni yog'dirgin, sust xotin,
Bug'doylarni bo'ldirgin, sust xotin.
Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,
Elu yurti to'ydirgin, sust xotin.

«Sust xotin» qo'shig'ini bir ayol aytib turgan, uning naqorat qismini hamma baravar takrorlagan:

Sust xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin,
Sust xotinga ne kerak?

¹ Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to'plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O'zbekiston, 1997.-192 b.

Sharros, sharros yomg'ir kerak.

So'nggi bosqichda maxsus joyda butun aholi nomidan is chiqarilgan. Zardushtiylikka xos kuygina marosimlar o'zbek etnik madaniyatidan joy olgan. To'g'ri, ularning barchasi saqlanib qolgan emas, ayrimlari yo transformatsiyaga uchragan yoki unutilgan. Shunday marosimlardan biri «O'tona», «Olov ayol»dir. Bu marosim uchun tajribali, mas'uliyatli, zardushtiyalar urf-odatlarini bilgan ayol tanlab olingan va u o'z vazifasini (o'tni asrash) bajarishga maxsus rasm-rusumlar bajarilganidan keyin kirishgan. «Choy momo» marosimi kuchli bo'ron yoki to'fonni og'ir mehnat bilan yitishtirilgan ekinlarni payxon qilmaslikka, meva-chevalarni bevaqt to'kmaslikka chaqirishga qaratilgandir. Marosim qatnashchilari asosan ayollar bo'lib, ular shamol xomiysidan tabiatdagi yovo'z kuchlarni jilovlashni so'rashgan.

Albatta, xalqimizning rekreativ - dam olish va hordiq chiqarish an'analari keyingi yillarda keskin transformatsiyaga uchramokda. Ushbu novatsion va innovatsion o'zgarishlar tabiiy xoldir, ammo xalqimiz etnik madaniyatidagi o'z qimmatini yo'qotmagan dam olish va hordiq chiqarish an'alarini asrash, ulardan samarali foydalanish ham muxdmdir. Sog'lom jamiyat, E. From aytganidek, faqat «shaxs erki va extiyojlarini qondirishga munosib shart-sharoitlar» yaratish bilangina emas, shu bilan birga xalq, millat etnik madaniyati, etnopsixologiyasiga va an'alariga tayangan holdagina barpo etiladi. Ana shundagina jamiyatda inqiloblarsiz, ag'dar-to'ntarsiz evolyutsion rivojlanish ta'minlanadi.

Xulosa.

Etnik madaniyat, xalq an'anaviy ijodi hozir zamonaviy san'at bilan uyg'unlashib, modernizatsiyalashib, o'z navbatida xalq ijodi ham zamonaviy san'atni xalqqa, ko'pchilikka yaqin, tushunarli qilish orqali rivojlanish yo'lidan bormoqda. Shuning uchun etnik madaniyatni faqat uzoq o'tmishga taalluqli, o'zgarmaydigan san'at, ijod turlari, marosimlar, an'analar, bayram va tomoshalar deb qaramaslik, balki, uni xalq ijtimoiy hayoti bilan mudom dialektik bog'liq u bilan birga transformatsiyaga uchrab, kishilarning ma'naviy-madaniy qiziqishlari va innovatsiyalar ta'sirida modernizatsiyalashib keladigan voqelik sifatida qarash kerak. Lekin, etnik madaniyatdagi o'zak, ya'ni o'zbek xalqiga xoslik mudom saqlanib qoladi. Respublikamiz madaniyatshunoslari madaniyatda ikki, ya'ni, bir tomondan, o'zgarmaydigan ichki (o'zak qatlam) va ikkinchi tomondan, tashqi ta'sirlar, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish, ob'yektiv omillar ta'sirida o'zgarib turadigan ustki qatlam mavjud deganida yuqoridagi jarayonlarni nazarda tutgan.

Ijtimoiy-madaniy infrastrukturani yangi talablar va ko'rsatkichlar asosida qayta tashkil etmay, nodavlat madaniyat o'choqlarini ma'naviy hayotimizning tarkibiy qismiga aylantirish qiyin. Xalqimiz madaniy-maishiy xizmat sohasida xususiy oshxona, kafe, kompyuterxonalar va videoxonalar ochmoqda. Ushbu izlanishlarni xalq etnik madaniyatiga ham tadbik etish maksadga muvofiqdir. Birok, biz xalq etnik madaniyatini o'rganish va targ'ib qilish mutloq pullik madaniy xizmat-kommersiya orqali rivojlanadi, degan fikrni bildirishdan uzoqmiz. Xalq ijodi va san'atida azaldan ixtiyoriylik hamda pullik xizmat ko'rsatish yonma-yon kelgan, ularning qachon pullik va qachon ixtiyoriy bo'lishini tomonlar o'zaro kelishgan tarzda hal etgan. Ushbu etnomadaniy an'anaga amal qilish, bizning fikrimizcha, etnik madaniyatning o'z ichki qonunlariga muvofiq rivojlanishini ta'minlaydi. Etnik madaniyatning rivojlanishini oilaviy yoki maxalla doirasi bilan cheklab, chegaralab bo'lmaydi, aks holda etnik madaniyat oilaviy-maishiy marosimlardangina iborat bo'lib qoladi. U

butun jamiyatni, xalqni, millatni ijodiy-madaniy jarayonlar sub'yektiga aylanishini hamda maxsus ijtimoiy-madaniy institutlar (ma'naviyat va madaniyat saroylari, xalq ijodiyoti uylari, teatrlar va b.)ning faol ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot ishlarini talab etadi.

O'zbek etnik madaniyatini rivojlantirish xalqimizning nafaqat tarixiy-madaniy qadriyatlarni sevishi, ulardan xabardor bo'lishi, xuddi shuningdek, ularning etnomadaniy hayotda faol sub'yektlar sifatida qatnashishini ta'minlaydigan ijtimoiy omillarga am bog'lashdir. Ushbu omillarga kishilarning ma'lumoti, bo'sh vaqti va undan foydalanish ko'nikmalari, madaniy qiziqishlari, ijtimoiy-madaniy institutlarga qatnashi, uy-joy sharoiti kabilar kiradi.

Madaniyat bilan sivilizatsiya o'rtasida umumiylik ya'ni birlik mushtaraklik bor. Ular orasida yana tafovutlar (farq)lar ham mavjud. Umumiylik shundaki, ikkisi ham tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq ommasi yaratgan, tarixan tarkib topgan, moddiy va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar yig'indisi negizida rivojlanadi.

Madaniyat bilan sivilizatsiya orasidagi tafovut shundaki, sivilizatsiya inson bilan insoniyat jamiyatining madaniy o'zgartiruvchilik moddiy va ma'naviy madaniyatni yaratuvchilik faoliyatining bir bosqichi, darajasidir.

Xulosa qilib aytganda o'zbek etnomadaniyati jahon sivilizatsiyasidagi roli beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi" -T.: 1998-yil 29-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish" -T.: 2001-yil 30-avgust
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayorlash milliy dasturi -T.: 1997 yil 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonun -T.: 1997 yil 29 avgust.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. -T.: O'zbekiston, 1996. - 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. - T.: O'zbekiston, 1996. - 380 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. - T.: O'zbekiston, 1996. - 366 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. - T.: O'zbekiston, 1996. - 394 b.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T. 5. -T.: O'zbekiston, 1997. - 384 b.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. -T.: O'zbekiston, 1998. - 429 b.
7. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. -T.: O'zbekiston, 2001. - 439 b.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. - T.: O'zbekiston, 2002. - 432 b.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. - T.: O'zbekiston, 2003. - 320 b.

10. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. - T.: O‘zbekiston, 2004. - 400 b.
11. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13. - T.: O‘zbekiston, 2005. - 448 b.
12. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O‘zbekiston, 2005. - 96 b.
13. Karimov I.A. Yangicha hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo‘lmaydi. “Xalq so‘zi” 2005 yil 18 fevral.
14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. // Xalq so‘zi, 2005 yil dekabr.
15. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T.14. - T.: O‘zbekiston, 2006. -280 b.
16. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish - ustuvor vazifalarimizdir. - T.: O‘zbekiston, 2007. - 46 b.
17. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: “Ma'naviyat”, 2008.-176 b.
18. Karimov I.A “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T.: O‘zbekiston, 2011.-440 b.

19. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik /Asqar Mahkam tarjimasi.-T.: Sharq, 2001.-384 b.
20. Alla aytay, jonim bolam /To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi G.Mardonova.-T.: Cho‘lpon, 1996.-64 b.
21. Alla-yo, alla: O‘zbek xalq allalari /To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov.-T.: O‘qituvchi, 1999.-160 b.
22. Asqarova G. Uyg‘otuvchi alla: She'rlar /So‘z boshi muallifi Shukrullo; Rassom G.Sultonova.-T.: Sharq, 2007.-14 b. (Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalari).

23. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.-T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2007.-275 b.
24. Durdonalar xazinasi: Hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, nasihatlar, hikmatlar, latifalar /Jamoatchilik asosida muharrir M.Qodirov.-T.: Sharq, 1999.-192 b.
25. Murod Malik. O'zbek qadriyatlari. 1-kitob.-T.: Cho'lpon, 1995.-271 b.
26. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996.-192 b.
27. Navro'z: Navro'z bayrami tarixini maktab, akad. litsey va kollejlarda o'rganish yuzasidan tavsiyalar /To'plab, nashrga tayyorlovchilar M.Xoshimxonov va boshq.-T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2008.-335 b.
28. Navro'z va tabiat sirlari /Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, G'.Jo'rayeva; Mas'ul muharrir I.Abdullayev.-T.: Mehnat, 1991.-30 b.
29. Tavasmiy Yusuf. Hikmatlar xazinasi: Buvalar va buvilar, otalar va onalar, kelinlar va kuyovlar, jajji o'g'il va qizchalar uchun ibratli hikoyalar /Mas'ul muharrir A.Hayitmetov; Tarj. U.Otajon.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.-1993.-112 b.
30. Temur tuzuklari /Mas'ul muharrir Muhammad Ali.-T.: Sharq, 2005.-160 b.
31. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to'plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O'zbekiston, 1997.-199 b.
32. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi /Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur; Mas'ul muharrir H.Karomatov.-T.: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2001.-617 b.
33. Homidiy Hamidjon. Jamiyatni ma'rifat qutqaradi: Tarix va zamon: [O'zbek xalqining milliy qadriyatlari folklorda...] //Muloqot.-2000.-№4.-B.25-29.
 1. <http://www.yuridlit.ru>
 2. <http://www.allpravo.ru>

3. <http://www.troek.net/zakaz.htm.ru>
4. <http://www.lawbook.ru>